

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

“BANK ISHI” FAKULTETI
«BANK ISHI VA KORPORATIV MOLİYALAR» KAFEDRASI

Bitiruv malakaviy ish
himoyaga ruxsat etildi
“Bank ishi” fakulteti
Dekani v.b. O.A.Ortiqov

Bitiruv malakaviy ish
himoyaga ruxsat etiladi
Kafedra mudiri
I.f.d., prof. N.G'. Karimov

«_____» _____ 2013 yil

«_____» _____ 2013 yil

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

MAVZU: “Iqtisodiyotni modernizasiyalash sharoitida investisiyalarni
samaradorligini oshirish yo'llari”

Bajardi: “Bank ishi” ta'lim yo'nalishi, 4-kurs,
BD-51 guruhi talabasi Qodirov U.F.

Ilmiy rahbar: “Bank ishi va korporativ
moliyalar” kafedra katta o'qituvchisi
Xojimatov R.X.

Bitiruv malakaviy ish dastlabki himoyadan o'tganligi 2013 yil
____ maydagi ____ - sonli bayonnoma bilan rasmiylashtirilgan.

MUNDARIJA

KIRISH	3
1-Bob. Investisiyalarni iqtisodiy mohiyati va ularning iqtisodiyotni rivojlantirishdagi o`rni	6
1.1. Investisiyalarni iqtisodiy tushunchasi va iqtisodiyotni rivojlantirishdagi o`rni	6
1.2. Investisiyalarni amalga oshirishning xuquqiy asoslari	19
1.3. Investisiyalarni samaradorlik ko`rsatkichlari	25
2 Bob. Investisiyalarni samaradorligini aniqlash mexanizmining tahlili	32
2.1. Investisiyalarni samaradorligini aniqlashning zamonaviy tartibining tahlili	32
2.2. AT “Uzsanoatqurilishbank”da investisiyalarni samaradorligi tahlili	46
2.3. Investisiyalarni samaradorligini aniqlashdagi muammolar	55
3-Bob. Iqtisodiyotni modernizasiyalash sharoitida investisiyalar investisiyalar samaradorligini oshirish yo`llari	61
3.1. Investisiyalarni samaradorligini oshirishdagi muammolarni bartaraf etish yo`llari	61
3.2. Investisiyalarni samaradorligini oshirishni takomillashtirishning yo`nalishlari	66
Xulosa va takliflar	70
Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati	74

KIRISH

Bitiruv malakaviy ishning dolzarbligi. Xozirgi bozor iqtisodiyoti sharoitida iqtisodiyot yuqori sur'atlar bilan barqaror o'sishi, aholini ish bilan bandlik darajasini yanada oshirish va mamlakat iqtisodiyotini investisiyaviy jozibadorligini oshirishda bozor iqtisodiyotini o'ziga xos tomoni bo'lgan samarador investisiyalargina ta'minlamoqda.

2012 yilda mamlakatimizning yuqori sur'atlar bilan barqaror o'sishini ta'kidlar ekanmiz, buning boisi va omilini avvalambor iqtisodiyotimizga yo'naltirilgan kapital mablag'lar, investisiyalar tobora o'sib borayotganida, bu ko'rsatkich yalpi ichki mahsulotga nisbatan 22,9 foizni tashkil etganida, deb hisoblashimiz zarur¹.

Iqtisodiyotda tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish va iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish, asosiy ishlab chiqarish fondlarini modernizasiya qilish, texnik qayta ta'mirlash, ishlab chiqarishda zamonaviy texnologiyalarni qo'llash va raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish va shu orqali mamlakatimizning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini ta'minlashda investisiyalarni o'rni muhim hisoblanadi.

E'tiborga sazovor tomoni shuki, jami investisiyalarning qariyb 74 foizi ishlab chiqarishni modernizasiya qilish va yangilashga qaratilgan dastur va loyihalarni amalga oshirishga yo'naltirildi.

Shu borada faqat o'tgan yilning o'zida umumiy qiymati 1 milliard 600 million dollardan ortiq bo'lgan kapital qo'yilmalar o'zlashtirilib, 205 ta yirik investisiya ob'ekti qurib bitkazildi².

Iqtisodiyotda bozor munosabatlari qaror topayotgan hamda mulkchilikning turli shakllariga mansub korxonalar, jumladan, xususiy mulkdorlar sinfi paydo bo'layotgan sharoitda investisiyalarni samarasini oshirishdagi muammolarni takomillashtirish katta ahamiyat kasb etadi.

¹ Karimov I.A. Bosh maqsadimiz – keng ko'lamli islohotlar va modernizasiya yo'lini qat'iyat bilan davom ettirish. Toshkent Xalq so'zi 2013 yil

² Karimov I.A. Bosh maqsadimiz – keng ko'lamli islohotlar va modernizasiya yo'lini qat'iyat bilan davom ettirish. Toshkent Xalq so'zi 2013 yil

Ana shu keng miqyosli vazifalarni hal etishda investision loyixalarni samaradorlik ko'rsatkichlari va ularni hisoblashning noan'anaviy bo'lgan usullaridan foydalanish va keng joriy etishni zarurligi ilmiy izlanishlar olib borishni dolzarbligini talab etadi.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Investision faoliyatdagi muammolarini o'rganish borasida qator etakchi xorijiy iqtisodchi-olimlar, xususan, Stenli L. Bryu, Makkonell K., D.G. CHernik va boshqalar asarlarida korxonalar investisiya faoliyatini faollashtirish muammolari tadqiq etilgan.

Lekin, mavzuning ayrim jihatlarini tadqiq etishda mamlakatimiz olimlari ham o'zlarining munosib hissalarini qo'shib kelmoqdalar. Prezidentimiz I.A. Karimov tomonidan ishlab chiqilgan ilmiy g'oya va mulohazalar, shuningdek, Mullajonov F.M., SH.Abdullaeva, D.G'ozibekov, O'lmasov, Jumaev N.X., A.Qodirov, T.Qoraliev, Karimov N.G'., T.Boboqulov, N.Haydarov va boshqa olimlar tomonidan amalga oshirilgan ilmiy izlanishlarning natijalari bunga misol bo'la oladi.

Ta'kidlash lozimki, iqtisodiyotni qayta qurishning hozirgi bosqichida iqtisodiyotning real sektoriga joylashtirilayotgan investision loyixalarni samaradorlik ko'rsatkichlari, ularni hisoblash usullari va uni zamon talablariga mos ravishda takomillashtirib borish ham amaliy, ham nazariy jihatdan o'ta dolzarb muammo hisoblanadi.

Bitiruv malakaviy ishning maqsadi va vazifalari. Investisiyalarni samaradorlik ko'rsatkichlari, ularni hisoblashning oddiy va diskontlangan usullarini keng joriy etish orqali uning uslubiy va amaliy tavsiyalarni ishlab chiqishdan iborat bo'lib, qo'yilgan maqsadga erishish uchun quyidagilar tadqiqot vazifalari etib belgilandi va hal etildi:

- investisiyalarni iqtisodiy tushunchasi va iqtisodiyotni rivojlantirishdagi o'rni;
- investisiyalarni amalga oshirishning xuquqiy asoslari;
- investisiyalarni samaradorlik ko'rsatkichlari;
- investisiyalarni samaradorligini aniqlashning zamonaviy tartibining tahlili;
- AT "Uzsanoatqurilishbank" da investisiyalarni samaradorligi tahlili;

-investisiyalarni samaradorligini aniqlashdagi muammolar va undagi muammolarni bartaraf etish yo'llari;

-investisiyalarni samaradorligini oshirishni takomillashtirishning yo'nalishlari keng ochib beriladi.

Bitiruv malakaviy ish predmeti va ob'ekti. Bitiruv malakaviy ishning predmeti sifatida investisiyalarni samaradorlik ko'rsatkichlari, uning hisoblash usullari va amaliyotga keng joriy etish bilan bog'liq iqtisodiy munosabatlar belgilanib, ishning ob'ekti esa O'zbekiston Respublikasida investision loyihalarni samaradorlik ko'rsatkichlari, ularni hisoblash usullari va uni amaliyotga keng joriy etishni takomillashtirish masalalari olindi.

Bitiruv malakaviy ishining amaliy tatbiqi O'zbekiston Respublikasida investision siyosatni ishlab chiqish va uni amaliyotga keng joriy etishda investisiyalarni samaradorlik ko'rsatkichlari va ularni hisoblash usullari hamda ularni amaliyotga keng joriy etish mexanizmini takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan. Shuningdek, tadqiqot natijalari moliya va bank muassasalari, oliy o'quv yurtlarida, investisiyalarni samaradorlik ko'rsatkichlari va ularni hisoblash usullarini ilmiy-tadqiqot ishlarida foydalanilishi mumkin.

Bitiruv malakaviy ishining tuzilish. Bitiruv malakaviy ishi kirish, uchta bob, xulosa va takliflar hamda foydalanilgan adabiyotlar ro'yhatidan iborat;

Bitiruv malakaviy ishni birinchi bobida investisiyalarni iqtisodiy mohiyati va ularning iqtisodiyotni rivojlantirishdagi o'rni, investisiyalarni iqtisodiy tushunchasi va iqtisodiyotni rivojlantirishdagi o'rni, investisiyalarni amalga oshirishning xuquqiy asoslari va Investisiyalarni samaradorlik ko'rsatkichlari ko'rib chiqildi.

Bitiruv malakaviy ishni ikkinchi bobida investisiyalarni samaradorligini aniqlash mexanizmining tahlil etilib, ularni samaradorligini aniqlashdagi muammolar aniqlandi.

Malakaviy ishda xulosa va takliflar taxlil yakunlarida investisiyalarni samaradorligini aniqlashda aniqlangan muammolarni bartaraf etishdagi ilmiy asoslangan takliflari va ularni bartaraf etish yo'llari hamda investisiyalarni samaradorligini oshirishni takomillashtirishning yo'nalishlari ishlab chiqilgan.

1-BOB. INVESTISIYALARNI IQTISODIY MOHIYATI VA ULARNING IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDAGI O`RNI

1.1. Investisiyalarni iqtisodiy tushunchasi va iqtisodiyotni rivojlantirishdagi o`rni

Bozor iqtisodiyoti sharoitida iqtisodiyot tarmoqlarini yuqori sur'atlarda o`rishiga samarali investisiyalargina faol ta'sir etib, ijobiy natijalarga olib boradi, bu mamlakat makroiqtisodiy ko`rsatkichlarini yaxshilashga, ish bilan bandlikni oshirish va mamlakatimiz iqtisodiyotini jozibadorligini oshirishga hizmat qilmoqda.

Investisiyalashning ustuvor yo`nalishlarini aniq belgilash, investisiya faoliyatini oqilona tartibga solish asosida ichki va tashqi moliyaviy manbalarni, barcha shart-sharoitlarni hisobga olgan holda jalb qilish milliy iqtisodiyotni kelajagini belgilaydi.

Shuning uchun, joriy yilda mamlakatimiz iqtisodiyotini 8 foizga, sanoatni 8,4 foizga, qishloq xo`jaligini 6 foizga, asosiy kapitalga kiritilgan investsiyalar hajmini 11 foizga<sup>3</sup>,... deb alohida etirof etib o`tdilar.

Shuning uchun investisiyalarni iqtisodiy mohiyatini kengroq ochish muhim va alog`ida ahamiyat kasb etadi.

Investisiyalarga aniq bir ta'rif berilmagan. Jumladan, prof. D.G`. G`ozibekov investisiyalarning iqtisodiy mazmun – mohiyatini moliyaviy kategoriya sifatida talqin etib, quyidagicha ta'rif berib o`tgan “Investisiyalarning mazmuni aniq va ishonchli manbalardan mablag`lar olish, ularni asosli holda safarbar etish, rikslar darajasini hisobga olgan holda kapital qiymatini saqlash va ko`zlangan samarani olishdan iborat bo`ladi”.⁴

U.Sharp investisiyalarga quyidagicha ta'rif beradi: «Istiqbolda yanada ko`proq miqdordagi mablag` olish uchun ma'lum miqdordagi pul bilan bugun ajralishdir. Real investisiyalar asosan moddiy aktivlarga (er, uskunalar, zavodlar) qilingan investisiyalardir. Moliyaviy investisiyalar bu qog`ozda bitilgan shartnomalardir. Bularga oddiy aksiyalar va obligasiyalar kiradi. Rivojlanayotgan

³ Karimov I.A Karimov I.A. Bosh maqsadimiz – keng ko`lamli islohotlar va modernizasiya yo`lini qat`iyat bilan davom ettirish.Toshkent Xalq so`zi.2013

⁴ Fozibekov D.F. Investisiyalarni moliyalashtirish masalalari. T.: “Moliya” nashriyoti. 2003. 26 bet.

iqtisodiyotda investisiyalarning asosiy qismi real investisiyalarga tegishlidir. Rivojlangan iqtisodiyotda esa investisiyalarning asosiy qismi moliyaviy investisiyalash institutlarining keng miqyosida rivojlanishi real investisiyalarning o`shishiga sababchi bo`ladi. Investisiyalarning bu ikki shakli bir-biri bilan raqobatlashuvchi emas, balki bir-birini to`ldiruvchidir».⁵

Asosiy kapitalga investisiyalar kapital qo`yilmalar shaklida amalga oshiriladi, hamda o`zida yangi qurilishga, kengaytirishga, rekonstruksiya va faoliyat ko`rsatayotgan korxonalarni texnik qayta jixozlashga, uskunalari, inventarlar, loyihaviy mahsulotlar sotib olishga sarf-harajatlarni mujassamlashtiradi. Iqtisodiy fanlar va amaliyot «investisiya» va «kapital qo`yilma» terminlarini bir xil narsa emasligini, ya`ni sinonim so`zlar emasligini ta`kidlaydi. Investisiyalar kapital qo`yilmaga nisbatan keng mazmunli, qamrovli tushunchadir. G`arb adabiyotlarida investisiyalar borasida so`z yuritilganda asosiy e`tibor fond bozoriga qaratiladi, chunki rivojlangan mamlakatlarda investisiyalar asosan qimmatli qog`ozlar yordamida amalga oshiriladi.

Ko`pgina adabiyotlarda «investisiya» terminida noaniqliklar uchraydi. Birinchidan, «investisiyalar»ga fuqarolarning «iste`molchilik investisiyalari» (maishiy texnika, avtomobil, ko`chmas mulk va boshq) qo`shib yuboriladi. Bunday investisiyalar esa kapitalni o`shishini va foyda olinishini ta`minlamaydi. Ikkinchidan, «investisiyalar» va «kapital qo`yilmalar» terminlarini tenglashtirishadi. Kapital qo`yilmalar - korxonaning moliyaviy mablag`larini asosiy kapitalga avanslashtirish bilan bog`liq investisiya faoliyatining shaklidir. Investisiyalar esa nomoddiy va moliyaviy aktivlarga qo`yilishi ham mumkin. Uchinchidan, ko`pgina manbalarda investisiyalarni pul mablag`larini qo`yish deb ta`riflanadi.

Yoki «Investisiya» tushunchasi bir kator ma`nolarga ega bo`lib, bu qisqacha mablag`-qo`yilma degan ma`noni bildirib, buni, foyda olish maqsadida aksiya, obligasiya sotib olish, tovar ishlab chiqarish uchun zarur bo`lgan real aktivlarni sotib olish va ishlab chiqarish hamda intellektual va boshqa (er, ta`biy boylik va

⁵ Sharp U., Aleksander G., Beyli Dj. Investisii: Per. s angl.- M.: INFRA- M, 1997.

boshqalar) moddiy boyliklar uchun sarflanishi hamda har qanday mol-mulk va hududlarni birgalikda iqtisodiy jihatdan samarali boshqarish⁶ deb tushuniladi, ya'ni investisiyalar har qanday vosita bo'lib, pulning qiymatini saklaydi yoki uning qiymatini ko'paytiradi va ijobiy daromadlar olishni hamda ijobiy o'zgarishlarni ta'minlaydi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida investisiyani muammosi huddi hususiy kapitalni jamg'arishdagi muammoga o'hshash sifatida ko'rib chiqiladi. Jamg'arish to'g'risidagi qonunlarni avvalgi tahlil boshlarida klassik siyosiy iqtisodchilar (A.Smit, D.Rikardo)ni jalb qilingan, qaysiki bu yakka kapitalni takror ishlab chiqarish jaryon bazasidagi ularning afzalligi tahlil etiladi. Mazkur tahlilda talab va takliflarning o'za'ro ta'siridagi sof foydani kapitalizasiya qilish va shakllantirish mehanizmi asosiy hal kiluvchi rolni o'ynaydi. Bunday yondashuv noliberalizm nazariyotchilari tomonidan davom ettirildi va qabul qilindi.

Investisiya tushunchasiga izoh berayotganda korxona qiymatiga e'tibor bermay turib, tushunchaga to'liq mazmun berib bo'lmaydi. Asosan korhona qiymatini oshiruvchi menedjerlar hisoblanib, bunday xodimlar tomonidan doimiy korhonaning kelgusidagi strategiyasi ishlab chiqiladi va boshqarib boriladi. Korhona qiymati o'zida mujassam etuvchi tizimni belgilab, bu 2 qismdan iborat:

- korxonani shaxsiy kapitalini bozor qiymati

- korxona majburiyatlarini bozor qiymati.

Korxonani qiymati deyilganda asosan uning kapitali yuqori bo'lishini emas, balki, hizmatlar va tovarlar bozorini ta'minlashdagi korxonaning mazkur kapitalini holati bilan izohlanadi. Bu holat korxona investisiyasini yo'nalishlarini aniqlaydi: agar uning kapitalini daromadligi o'sishini ta'minlovchi va korxonani rakobatbardoshligini oshirsa, u holda korxonani qiymati ortadi va uning mulk egalari boyib boradi⁷.

Shuningdek, investisiyani iqtisodiyotdagi o'rni yoritib berish uchun uning tendensiyalarini makroiqtisodiy ko'rsatkichlarga bog'lash va taxlil etish lozim.

⁶ Karimov,N.F., Xojimatov R.X ., Investisiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish., O'quv qo'llanma. Toshkent-TDIU 2011.

⁷ Knish. Investisii. Uchebnoe posobie, M.INFRA- 2004.320 s.

Demak, investisiya deyilganda nafaqat qimmatli qog'ozlarga qo'yilayotgan investisiyalar, balki iqtisodiyotni modernizasiyalashda ishlab chiqaruvchi korxonalarning yangi zamonaviy innovasion texnologiyalar va jixozlar bilan qayta qurish, ishlab chiqarishni boshqa sohaga ixtisoslashtirish, yangi texnik va texnologik jarayonlarni yangilash va boshqalarga aytiladi.

Shuning uchun biz mamlakatimiz iqtisodiyotda investisiyalarni o'rnini quydagi jadval orqali taxlil qilamiz.

Quyidagi jadval taxlillari shuni ko'rsatmoqdaki, mamlakatimizning yalpi ichki maxsuloti yildan yilga(ya'ni 2012 yilda avvalgi yilga nisbatan 124,1 %ga) o'sish tendensiyasiga ega bo'lgan bir sharoitda mamlakatimizdagi investisiyalar esa 120,7 %ga o'sish darajasiga ega bo'lgan. Shuning bilan birga mamlakatimiz iqtisodiyotini modernizasiyalashga kiritilgan investisiyalarni jami investisiyalardagi ulushi avalgi yilga nisbatan o'sish (2012 yilda aavalg yilga nsbatan 100,6 %ga o'sish kuzatilgan)tendensiyasiga ega bo'lsada, mazkur ko'rsatkichni mamlakatimiz yalpi ichki maxsulotga nisbati esa pasayish tendensiyasiga ega bo'lgan yoki bu ko'rsatkich 2012 yilda avvalgi yilgan nisbatan 81,1 %ni tashkil qilgan.

1-jadval

O'zbekiston iqtisodiyotini YAIM va iqtisodiyotni modernizasiyalashni xozirgi xolatini dinamikasi⁸

yillar	YAIM jami trln	Investisi- yalarni jami trln	Investisi- yani YAIMga nisbati %	Iqtisodiyotni modernizasiya- lashga qo'yilgan investisiyalarni jami investisiya dagi ulushi (%)	Iqtisodiyotni moderni- zasiyalashga qo'yilgan investisiyalarni jami investisiyadagi ulushini YAIMga nisbati(%)
2008	36,80	5,5	14,95	70,1	190,49
2009	48,1	8,2	17,05	70,9	147,40
2010	61,8	15,4	24,92	72	116,50
2011	77,8	18,3	23,52	73,5	94,47
2012	96,6	22,1	22,88	74	76,60

Demak mamlakatimiz yalpi ichki maxsulotning o'sish darajasi iqtisodiyotni modernizasiyalashga qo'ygan investisiyalarni jami investisiyalardagi ulushiga

⁸ O'R davlat statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan

nisbatan tezroq o`sayotganligi ma`lum bo`ldi. Iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirishda uning makroiqtisodiy ko`rsatkichlarni o`shirish darajasiga nisbatan oshirish muhim rol o`ynaydi.

Biroq, investisiyalar nafakat real kapitalni oshirishga sarflanadigan resurslardir, ushbu resurslar moddiy, nomoddiy aktivlarga, qimmatli qog`ozlarni sotib olishga ham sarflanadi. Investisiyalar kelajakda foyda yaratish maqsadida iqtisodiy resurslarni uzoq muddatga ishlatish deb ham tushuniladi<sup>9</sup>, ya`ni, kapitalni kapitalizatsiyalash va jamg`armalarni yaratish maqsadlarida pirovard maqsadga etishgacha moliyaviy resurslarni band qilish investisiyalar deb ataladi.¹⁰

O`zbekistonlik olimlar: «Investisiya – bu mulk shaklidan qat`iy nazar tadbirkorlik asosida faoliyat yuritayotgan jismoniy va yuridik shaxslar yoki davlatning iqtisodiy va ijtimoiy samara olish maqsadida o`z ihtiyoridagi moliyaviy, moddiy va intellektual boyliklarini Qonun doirasida bo`lgan har qanday tadbirkorlik ob`ektiga sarflashidir».¹¹

Lekin, professor A. Ulmasovning ta`kidlashicha investisiyalar faqat ishlab chiqarish sohasiga qo`yiladigan mablag`larni hisobga oladi. Bu erda, fikrimizcha, o`z navbatida investisiyalarning tarkibiy qismi bo`lgan qimmatli qog`ozlar va intellektual investisiyalar e`tibordan chetda qolib ketadi.

Mamlakatimiz iqtisodiyotini rivojlantirishda ishlab chiqarishning asosiy kapitali muhim o`rin tutadi, bu avvalo uzoq muddatli real innovasion aktivlarini oshirsa, ikkinchidan barqaror chet el kapitali xisobiga valyutadagi ustav kapitali va zaxiralarini oshirishga olib boradi.

Shuning uchun biz mamlakatimiz ishlab chiqarish sohasini asosiy kapitaliga kiritilgan investisiyalarni tendensiyalarini taxlil etishni lozim.

Quyidagi jadval ma`lumotlariga asoslanib, mamlakatimiz iqtisodiyotini ishlab chiqarish korxonalarning asosiy kapitaliga qo`yilgan investisiyalarni 2008 yilgacha o`shirish (2008 yilda avvalgi yilga nisbatan 28,3%ga o`sgan)tendensiyalariga ega

⁹ Berens V., Xavranek P.M. «Rukovodstvo po osenke effektivnosti investitsiy». M.:«Infra-M», 1995 y., 353b.

¹⁰ Djons Ernest «Delovue finansu», M., 1998 y., 416 b.

¹¹ Xaydarov N. «Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida korxonalar investision faoliyatidagi moliya-soliq munosabatlarini takomillashtirish masalalari», iqtisod fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertasiya avtoreferati. T., 2003 y., 14-15 b.

boʻlgan, lekin 2008 yilda jahon iqtisodiyotida vujudga kelgan jahon moliyaviy iqtisodiy inqirozi taʼsirida bu 2010 yilgacha pasayish tendensiyasiga ega boʻlgan, ammo koʻrilgan chora tadbirlar natijasida 2011 (18,76%) va 2012 yilda (20,76%) oʻsish tendensiyasi kuzatilgan.

Iqtisod fanlari nomzodi F. Gozievning taʼrifida investisiyaning barcha turlari hisobga olingan. Ammo uning taʼrifida investisiya fakat tadbirkorlik faoliyatidagi obʼektlarga barcha turdagi mulkiy, moliyaviy va intellektual boyliklarni hisoblaydi.

2-jadval

Asosiy kapitalga investisiyalar dinamikasi (joriy narxlarda)¹²

yillar	Asosiy kapitalga investisiyalar, mlrd. soʻm	Oʻtgan yilga nisbatan oʻsish, %
2005	3165,2	7
2006	4041	9,1
2007	5903,5	22,9
2008	8587,1	28,3
2009	12531,9	24,8
2010	15409,1	9,2
2011	18300	18,76
2012	22100	20,76

Lorens Dj. Gitman va Maykl D. Djonkning «Investisiyalash asoslari» (M. «Delo» nashriyoti-1997) kitobida investisiyalarga quyidagicha taʼrif beriladi: Investisiya moliyaviy natijalar olishni koʻzlab aksiya va obligasiyalarni sotib olishni anglatadi: bular real aktivlarni belgilaydi, masalan, u yoki bu molni ishlab chiqarish va sotish uchun mashinalarni olishni nazarda tutadi.

Shuning uchun, investisiyalarni surʼatlarini taxlil etish va uning iqtisodiyot rivoji bilan hamohang ravishda tashkil etish muhimdir.


Quyidagi diagrammadan shuni koʻrishimiz mumkinki, jahon iqtisodiyotidagi moliyaviy-iqtisodiy inqirozni taʼsiri bizning mamlakatimizdagi investision jarayonlarni sekinlashuviga olib kelgan, 2011 yildan boshlab davlatning investision

¹² OʻR davlat statistika qoʻmita maʼlumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan

muhitni shakllantirishga qaratilgan islohotlar natijasida u o`shish tendensiyasiga ega bo`lganligini ko`rishimiz mumkin(ya`ni 2012 yilda bu ko`rsatkich 128,4%g o`sgan). Investisiya tushunchasini mohiyatini ochishda ko`proq va kengqamrovli aniq qo`yidagi tushunchalar yordam beradi: investisiya – ijobiy- ijtimoiy samaraga erishish va sof foyda olish maqsadida tadbirkorlik va boshqa faoliyatlar ob`ektlariga qo`yiladigan jumladan; intellektual boyliklariga, mulklar va mulkiy huquqlarga, kredit, tovarli belgilarga , lisenziyalarga, jihozlarga, mashina va uskunalarga, texnologiyalarga, paylarga, maqsadli bank jamg`armalariga qo`yiladigan pul mablag`laridir¹³.

1-diagramma

O`zbekiston Respublikasida 2006-2012 yillarda investisiyalar sur`atlari(oldingi yilga nisbatan foizda)¹⁴



Iqtisodiyotda kapital qo`yilmalar deganda asosiy vositalarni yangilash bilan bog`lik bo`lgan harajatlar tushiniladi. Hozirgi davrda mamlakatimizda kapital qo`yilmalar asosiy vositalarga qilinadigan investisiyalar shaklida amalga oshiriladi.

Biz investisiyalarni iqtisodiy mohiyatini yoritishda uning iqtisodiy munosabatlar bilan bog`liqligiga e`tibor qaratdik. Demak investisiya kapital oshirishni ta`minlovchi iqtisodiy munosabatlar majmuasi ekanligiga to`liq

¹³ Karimov ,N.F., Xojimatov .R.X. Investisiyalarni tashkil etish va moliyalashtiri. O`quv qo`llanma,Toshkent.TDIU-2011yil

¹⁴ O`R davlat markaziy statistika ma`lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqildi.

ishondik. Shuning uchun, biz investisiyalarni ob'ekti, sub'ekti, amalga oshirish manbalari va ularning turkumlanishiga e'tibor qaratdik.

Investisiyalashning asosini iqtisodiyotning real sektoriga qo'yilmalar, ya'ni mulkchilik shakli har xil bo'lgan korxonalar asosiy va aylanma kapitaliga qo'yilmalar tashkil etadi. Investisiyalar bozori muvozanatlangan narxlar bo'yicha investision tovarlar oldi-sotdisi bo'lib o'tadigan sohani sohani ifodalaydi.

Amaldagi qonunchilikka asosan quyidagilar investisiya faoliyatining sub'ektlari (investorlar va ishtirokchilar) bo'lishlari mumkin:

- O'zbekiston Respublikasining rezidentlari - fuqarolari (jismoniy shaxslari), yuridik shaxslari;

- mahalliy davlat hokimiyati organlari va davlat boshqaruv organlari;

- xorijiy davlatlar, xalqaro tashkilotlar va chet ellik yuridik shaxslar hamda fuqarolar, shuningdek fuqaroligi bo'lmagan shaxslar va O'zbekiston Respublikasining chet elda doimiy yashovchi fuqarolari;

- hamkorlikda investisiya faoliyatini amalga oshirayotgan yuridik va jismoniy shaxslar, shuningdek davlatlar va xalqaro tashkilotlar.

- Investorlar qonun hujjatlariga muvofiq buyurtmachi (mablag` kirituvchi), kreditor, sotib oluvchi bo'lishlari, shuningdek investisiya faoliyati ishtirokchisi vazifasini bajaruvchi bo'lishlari mumkin.

- Investisiya faoliyatining ishtirokchilari investor bilan tuzilgan shartnoma asosida investorning buyurtmasini bajaruvchi bo'lishlari mumkin.

O'zbekiston Respublikasida amaldagi qonunchilikka asosan investisiyalar mo'ljallangan ob'ektiga ko'ra kapital, innovasiya va ijtimoiy investisiyalarga bo'linadi:

- Kapital investisiyalar jumlasiga asosiy fondlarni vujudga keltirish va takror ishlab chiqarishga, shuningdek moddiy ishlab chiqarishning boshqa shakllarini rivojlantirishga qo'shiladigan investisiyalar kiradi;

- Innovasiya investisiyalari jumlasiga texnika va texnologiyalarning yangi avlodini ishlab chiqish va o'zlashtirishga qo'shiladigan investisiyalar kiradi;


➤ Ijtimoiy investisiyalar jumlasiga inson salohiyatini, malakasi va ishlab chiqarish tajribasini oshirishga, shuningdek nomoddiy ne'matlarning boshqa shakllarini rivojlantirishga qo'shiladigan investisiyalar kiradi;

Shuning bilan birga investision faoliyatning ob'ektlari esa investorlarga daromad olib keltiruvchi uning ob'ekti hisoblanadi. Amaldagi qonunchilikka asosan investisiya faoliyati ob'ektlariga moddiy va nomoddiy ne'matlar ishlab chiqarish ob'ektlari investisiya faoliyatining ob'ektlar kiritilishi belgilangan.

Investisiyani iqtisodiy mohiyati moliya tizimining keng qamrovli, ko'pqirrali va nihoyatdagi murakkab jarayoni bo'lib, buni xech bir iqtisodiy olim va akademiklar, ilm arboblari aniq iqtisodiy mohiyatini to'liq ochib bera olmagan.

CHunki bu kategoriya doimiy xar bir regiondagi mamlakatlarni iqtisodiyotini rivojlanishning evolyusion darajalari, iqtisodiyotni moliyalashtirishning maqsadli manbalari(qimmatli qog'ozlar yoki bank kreditlari) hisobiga asoslanadi. Shuningdek mazkur kategoriya rivojlanishning xar bir davrlarida turlicha mavqega, ahamiyatga va iqtisodiyotni rivojlantirish xususiyatlariga ega bo'lib, bu doimiy rivojlanish, takomillashuv xarakterlariga ega.

1 chizma



Rossiya adabiyotlarida Qonunchilik asosida kapital qo'yilmaga aniq ta'rif berilib, bu qo'yidagicha «Kapital qo'yilma - bu asosiy kapital (asosiy vositalar)ga qo'yilgan investisiyalar bo'lib, bunga ishlayotgan korxona uchun yangi qurilish

¹⁵ Muallif tomonidan tayyorlagan

harajatlari, uni kengaytirish, rekonstruksiya qilish, texnik qayta qurollantirish, korxona uchun yangi qurol-jixoz va mashina sotib olish, loyiha izlanish harajatlari va boshqalar kiradi.»¹⁶

Kapital qo'yilmani strukturasi turlari qo'yidagicha farqlanadi: texnologik kapital qo'yilma, qayta ishlab chiqarishga qo'yilgan kapital qo'yilma, tarmoq uchun qo'yilgan kapital qo'yilma va hududlarga qo'yilgan kapital qo'yilmadan iborat: Kapital quyilmani texnologik strukturasi deganda bu harajatlar tarkibiga kiruvchi ob'ektni ma'lum harajat turlari va buni umumiy smeta qiymatdagi ulushi va ob'ektni kandaydir bino harajatlari tushuniladi, yoki qurilish montaj ishlarini bajarish; qurol yarok, jihoz sotib olish va boshqa kapital ishlari va harajatlarni o'z ichiga oladi.

Kapital qo'yilmani qayta ishlab chiqarish strukturasi deyilganda asosiy ishlab chiqarish fondlarini qayta ishlab chiqarishni formalari bo'yicha umumiy smeta qiymatini taqsimlanishi va uning bir biriga nisbati orqali shakllanadi yoki kapital qo'yilmani qayta ishlab chiqarishni kengaytirish usuli va rivojlanish yo'llarini taqsimlab, bunda: ekstensiv rivojlantirish yoki mazkur korxonani kengaytirish yoki yangi qurish; intensiv rivojlantirish yoki mazkur korxonani texnik qayta qurollantirish va rekonstruksiya qilishdan iboratdir.

O'zbekiston respublikamizda investisiyani ishlab chiqarish tarmoq strukturasi bo'yicha joylashtirishga nazar tashlasak, shuni ko'rsatmokdagi, asosan sanoat tarmoqlariga, transport sohasiga joylashtirilayotganligini ko'rishimiz mumkin.

Iqtisodiy o'sishni muhim tomoni bu mamlakat iqtisodiyoti tarmoqlari; shu jumladan, ishlab chiqarish tarmoqlari asosiy kapitaliga qo'yilgan investisiyalarni samarali teng taqsimlanishiga bevosita bog'liq.

YUqoridagi jadval ma'lumotlariga asoslanib, mamlakatimiz iqtisodiyotini ishlab chiqarish soxasidan sanoat ishlab chiqarishni asosiy kapitaliga qo'yilgan investisiyalarda 2012 yilda 35,54%, transport va aloqa soxa kapitaliga 18,25% ni tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich 2011 yilda 32,69%ni, 23,60%ni tashkil qilgan. Bu mamlakatimizda sanoat ishlab chiqarishi va transport va aloqa soxasidagi tashkil

¹⁶ E.G.Nepomnyashiy. Ekonomicheskaya osenka investisiy. Uchebnoe Posobie. Taganrog-2005gg

etilgan investision muxitning maxsuli ekanligidan dalolat beradi. Demak mamlakatimiz jahon iqtisodiyoti tarmoqlarini rivojlanish tendensiyalariga moslashayotganligidan dalolat beradi.

3 Jadval

Iqtisodiyotni ishlab chiqarish tarmoqlari asosiy kapitaliga kiritilgan investisiyalar¹⁷

No	Asosiy ko'rsatkichlar	2012 yil Mlrd	ulushi(%)	2011 yil mlrd	ulushi(%)
1	Jami investisiyalar	22067	100,00	18291	100,00
2	shundan: ICH sohasi	14690,8	66,57	12917,4	70,62
3	Sanoat	7622,6	34,54	5980	32,69
4	Qishloq xo'jaligi	905,8	4,10	846,5	4,63
5	Qurilish	508,1	2,30	472,1	2,58
6	Transport va aloqa	4026,9	18,25	4316	23,60
7	Savdo va umumiy ovqatlanish	888	4,02	742,6	4,06
8	Geologiya	422	1,91	328,3	1,79
9	Boshqalar	317,4	1,44	231,9	1,27

Quyidagi jadvaldan ko'rinib turibdiki, mamlakatimizda investision faoliyat bilan bog'liq muxit shakllanayotganligi va keng sur'atlarda rivojlanayotganligini ko'rishimiz mumkin. Demak, investisiyalarni tashkil etishda asosan korxonalarning asosiy kapitaliga qo'yilgan investisiyalarning ham mos holda o'zni faol sur'atlarda o'sayotganligini ko'rishimiz mumkin.

Shuning bilan birga investisiyalashni amalga oshirishda asosiy va xal qiluvchi omil bu investisiyaning moliyalashtirish manbalari hisoblanadi.

Rivojlangan mamlakatlarda iqtisodiyot rivojini oshirishga asosan investision muxit va unda chet el investisiyalari, aholi mablag'lari va korxona mablag'larini o'zni muhim o'rin tutadi.

Iqtisodiyot taraqqiyotining mazkur bosqichida quyidagilar byudjetdan moliyalash nuqtai nazaridan ustuvor yo'nalishlar bo'lishi kerak:

¹⁷ O'R markaziy statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan

- birinchidan, ichki va jahon bozorlarida asosiy mavqeni qo`lga kiritish imkonini beradigan ishlab chiqarishlar (masalan, to`qimachilik sanoatini rivojlantirish) qo`llab-quvvatlanishini ta'minlash;

4 jadval

Mamlakatimizda investisiyalar, asosiy kapitalga qo`yilgan investisiyalar va ularni mamlakatimiz YAIM dagi ulshi¹⁸

yillar	YAIM Jami Trln	Investisiya larni Jami trln	investisiya ni YAIMga nisbati %	asosiy kapitalga qo`yilgan investisiyalarni jami investisiya dagi ulushi (%)	Asos.kapit qo`yilgan investiyalarni YAIM dagi ulushi
2008	36,80	5,5	14,95	70,1	190,49
2009	48,1	8,2	17,05	46,9	97,51
2010	61,8	15,4	24,92	47,3	76,54
2011	77,8	18,3	23,52	50,2	64,52
2012	96,6	22,1	22,88	50,9	52,69

- ikkinchidan, bozor infratuzilmasini rivojlantirish, bu esa xorijiy investorlarni jalb etish uchun shart-sharoit yaratadi;

- uchinchidan, mamlakat iqtisodiyoti bir maromda va barqaror o`lishini qo`llab-quvvatlash.

Investisiyalarni faol tashkil etishda uning manbalarini o`rni muhim uni xarakterga keltiruvchi kuch bo`lib xizmat qiladi. Shuning uchun investision loyixalarni moliyalashtirishda mamlakatimizdagi mmoliyalashtirish manbalarini tahlil etib o`tamiz.

Jadvaldan shuni ko`rish mumkinki, byudjet mablag`larini ulushi kamayib, chet el investisiyalarni ulushi ortayotganligihamda aholi va korxona mablag`lari va boshqa manbalarning ulushi ortayotganligini ko`rishimiz mumkin.

¹⁸ O`R markaziy statistika qo`mitasi ma'lumotlari asosida tayyorlangan

5 jadval

**2006-2012 yillarda investisiyalarni moliyalashtirish manbalari tarkibini
o'zgarishi¹⁹ (foizda)**

Moliyalashtirish manbalari	2006 y.	2007 y.	2008 y.	2009 y.	2010 y.	2011 y.	2012 y.
Davlat byudjeti	10,7	9,0	9,0	8,1	7,4	5,1	5.2
CHet el investisiyalari	19,0	22,8	25,8	32,4	28,8	25,3	26.3
Korxonalar va aholi mablag`lari	60,0	59,0	53,9	46,9	47,3	49,0	50.0
Boshqa manbalar	10,3	9,2	11,3	12,6	16,5	20,6	18.6

Iqtisodga oid asarlarda investisiya riski deganda investisiya faoliyati shartlarining noaniqligi vaziyatida ko`zda tutilmagan moliyaviy yo`qotishlar (foyda, daromadning pasayib ketishi, sarmoyani yo`qotish va h.k.) vujudga kelishi ehtimoli anglanadi.

CHet elda esa investisiya riski tushunchasi keng ma`noda talqin etiladi. Shuning uchun ham xorijiy adabiyotda investisiya riski deganda investisiya faoliyatiga muayyan darajada ta`sir etishi mumkin bo`lgan ayrim voqealar sodir bo`lishi ehtimolini tushunish kerak, deb ta`kidlanadi.

O`zbekiston hamon eng yirik xorijiy netto-investor bo`lib qolmoqda, bunda davlat donor rolini bajarmoqda. Mamlakatning investisiyaga bo`lgan ehtiyoji juda katta, shu boisdan uzoq xorijdan ham, yaqin xorijdan ham (Rossiya, Qozog`iston, Ukraina, Boltiq bo`yi mamlakatlari) xorijiy investorlarni jalb etish uchun hozirgidan ham kuchliroq omillarni topish kerak. Bundan tashqari Davlat mamlakat aholisi omonatlarini investisiyalarga jalb etish uchun moddiy va tashkiliy omillarni vujudga keltirishi kerak. Bu esa investisiya bozorida tijorat banklari rolini oshirishni talab etadi.

¹⁹ O`R markaziy statistika qo`mitasi ma`lumotlari asosida tayyorlangan

Aholi omonatlarini mamlakatimiz kapital bozoriga jalb etish uchun vositachi moliyaviy tashkilotlar, xususan, banklar, investisiya fondlari, sug`urta kompaniyalari kabilar o`zlarining keng tarmog`iga ega bo`lishlari zarur.

Investisiyalarni amalga oshirish jarayonida eng mas`uliyatli va ahamiyatli bosqichlaridan biri investisiyalarning samarali bo`lgan muqobil variantlarni asoslab berish va investision qarorlar qabul qilishdan iboratdir, jumladan, mavjud barcha texnik-iqtisodiy va moliyaviy axborotlarni tahlil qilish va integral baholash hisoblanadi. Investisiyalar samaradorligi real aktivlarga qo`yilgan mablag`lar kiritish variantlarini tanlash va asoslab berish jarayonida markaziy o`rinni egallaydi.

Investisiya esa uzoq muddatga yoki bir necha ho`jalik oborotiga kapital qo`yishga olib boradi va bunday kapital qo`yilma asosiy vositalarni xoxlagan formasidan foydalanishga olib boradi (sotib olish yoki xatto ijara, tashkil etish). Shuning uchun investisiyani birinchi farq qiluvchi xususiyati bu mazkur *jarayonda asosiy zamonaviy vositalarni ishtirok* etishi hisoblanadi.

Investisiyani iqtisodiyoti rivojiga ijobiy ta`sirini O`zbekiston Respublikasi Prezidenti I. A. Karimov “Barchamiz oddiy bir haqiqatni yahshi anglab olishimiz darkor - investisiyalarsiz modernizasiya ham, yangilanish ham bo`lmaydi<sup>20</sup> deb e`tirof etdilar.

1.2. Investisiyalarni amalga oshirishning xuquqiy asoslari

Shuning uchun investisiya makroiqtisodiy nuqta nazaridan investision muhitni shakllantirish va uni tartibga solishda davlat bosh isloxotchi sifatida amaldagi qonunchiliklar, tartiblar, Nizom, Qarorlarni ishlab chiqish orqali bevosita ishtirok etadi. Bu mamlakatimizda investision jarayonlarni tashki etish, investision muxitni shakllantirishda qonuniy asos bo`lib xizmat qiladi. Chunki qonunchilik asosida investision ishtirokchilarni xuquq va majburiyatlari, xarakat etish shakllari va boshqa maqsadlar ishlab chiqiladi.

²⁰ Karimov I.A. Yangilanish va barqaror taraqqiyot yo`lidan yanada izchil harakat qilish, xalqimiz uchun farovon turmush sharoiti yaratish- asosiy vazifamizdir. Toshkent: O`zbekiston, 2010 y..

1998 yil Respublikamizda investisiya faoliyati sohasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi 3 ta – 1998 yil 30 aprelda O`zbekiston Respublikasining «CHet el investisiyalari to`g`risida» va «CHet el investorlarining kafolatlari va ularning huquqlarni himoya qilish choralari to`g`risida»gi hamda 1998 yil 24 dekabrda «Investisiya faoliyati to`g`risida»gi qonunlar qabul qilindi. Bu qonunlar mamlakatimizda investisiya muhitini yaxshilashga va uning iqtisodiyotga investisiya joylashtirish hajmlarini oshirishga yo`naltirilgan.

Investisiyalar moliya bozorining kategoriyasidir, ya'ni iqtisodiy munosabatlar ishtirokchilari o`rtasida mablag`larni taqsimlash va qayta taqsimlash jarayonidagina yashashi va amalga oshirilishi mumkin.

O`zbekiston respublikasining 1993 yil 7 maydagi N 841-XII sonli «Valyutani tartibga solish to`grisida»gi Qonun, O`zbekiston Respublikasi Davlat mulk kumitasining 2001 yil 29 mart №01/06-5 sonli Qarori bilan tasdiklangan «CHet El investorlarining ular tomonidan sotib olayotgan aksiya va ob'ektni to`lash shakli xaqidagi»gi Nizom, O`zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligining 2002 yil 7 martda №1108 son bilan ruyxatdan utgan «Investision vositachilar to`g`risida» gi Nizom, O`zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligining 1998 yil 18dekabrda №569 son bilan ruyxatdan utgan «Xususiylashtirilayotgan korxonalar aksiyasini chet El investorlariga texnologik jixoz jo`natish xisobiga sotish» Tartibi, O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006 yil 9 oktyabrdagi №PP-484 son Qaroriga asosan «O`zbekiston Respublikasini yillik investision dasturi xakda»gi, Mazkur Qonun, tartib, Nizom va Qarorlar mazkur faoliyatini tartibga solib turish uchun dastur amal bo`lib xizmat qiladi.

O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006 yil 9 oktyabrdagi 484 – sonli “O`zbekiston Respublikasining 2007 yilgi Investisiya dasturi to`g`risida”gi Qarori muvofiq O`zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi tomonidan Moliya vazirligi, Tashqi iqtisodiy aloqalar, investisiyalar va savdo vazirligi, boshqa manfaatdor vazirliklar, idoralar va xo`jalik sub'ektlari bilan birgalikda ishlab chiqilgan O`zbekiston Respublikasining 2007 yilgi Investisiya dasturining asosiy parametrlari tasdiqlana boshlandi.

Dasturni amalga oshirilishi monitoringi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2000 yil 4 yanvardagi 1 - sonli qarori bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi Investisiya dasturiga kiritilgan loyihalarning amalga oshirilishi ustidan davlat monitoringi to'g'risidagi Nizomga va Vazirlar Maxkamasining 2005 yil 15 noyabrdagi 251 – sonli “Investisiya loyixalarini tasdiqlash va amalga oshirish monitoringi mexanizmlarini takomillashtirish, muruvvat yordamida yuklarini va texnik ko'maklashish mablag'larini hisobga olish va nazorat qilish chora – tadbirlari to'g'risida” gi Qaroriga muvofiq amalga oshiriladi.

Erkin iqtisodiy hudud – bu ma'lum hududda chet el investisiyalari erkin kirib kelishi va ularga nisbatan qator imtiyozlar belgilangan hududdir.

O'zbekiston Respublikasining “Erkin iqtisodiyot hududlar to'g'risida”gi Qonunida erkin iqtisodiy hududga quyidagicha ta'rif berilgan: “Erkin iqtisodiy xududlar – mintaqani jadal ijtimoiy – iqtisodiy rivojlantirish uchun mamlakat va chet el kapitalini, istiqbolli texnologiya va boshqaruv tajribasini jalb etish maqsadida tuziladigan, aniq belgilangan ma'muriy chegaralari va alohida xuquqiy tartiboti bo'lgan maxsus ajratilgan xududdir”.²¹

Erkin iqtisodiy hududlarni tashkil etish jarayonida davlat qo'llab – quvvatlovchi, rag'batlantiruvchi hamda nazorat qiluvchi sifatida bosh islohatchi bo'lishi lozim. Davlatning bosh islohatchi sifatida qatnashishi xorijiy tajribasida aniq namoyon bo'ladi, masalan Xitoy hukumati 1 dollar chet el investisiyalarni jalb etish uchun 4 dollar o'z mablag'larini safarbar etgan.

Natijada, milliy va asosan, xorijiy investorlar xududlarga investisiyalar kirita boshlagan, bu esa o'z navbatida, mamlakat iqtisodiyotini rivoji uchun poydevor bo'lib xizmat qildi. Rossiyada yaratilgan erkin iqtisodiy xududlarga Naxodka, Kaliningrad viloyati, Sank – Peterburg shahari va boshqalar kiradi.²²

²¹ O'zbekiston Respublikasining “Erkin iqtisodiy hududlar to'g'risida”gi Qonuni, 1996 yil 25 aprel.

²² Sergeev E.Yu. Svobodnye ekonomicheskie zony//. Mejdunarodnye ekonomicheskie otnosheniya. – M; 2000. – 121 str.

Qozog'istondagi birinchi erkin iqtisodiy hududlar 1991 yilda paydo bo'lgan. Bular: Jezqozon viloyatdagi Jayren – Atasu, Kostanay viloyatdagi Lisakov va Olmaota shahardagi "Otakent" erkin iqtisodiy xududlardir.

Ob'ekt qurilishiga shartnoma tanlov savdolari natijalari bo'yicha belgilangan qurilishning butun davriga yangi qurilishga, ishlab turgan korxonalarni kengaytirish, rekonstruksiya qilish va texnika bilan qayta jihozlashga tuziladi.

Shartnoma O'zbekiston Respublikasining Fuqorolik Kodeksi, "Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy – xuquqiy bazasi to'g'risida" gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni hamda kapital qurilish sohasidagi boshqa normativ – huquqiy harajatlar talablariga muvofiq tuziladi.

Davlat byudjeti hisobidan moliyalashtirildigan markazlashtirilgan kapital qo'yilmalar uchun limitlar belgilanib borilgan.

2000 yillarning boshlarida byudjet mablag'lari hisobiga alohida investisiyalarni moliyalashtirishga prinsipial yangicha qadam qo'yildi, bunda:

- a) investisiya loyihasi nufuzi va iqtisodiy samaradorligini hisobga olib moliyalashtirish uchun investisiya loyihalari saralash tanlovini o'tkazish;
- b) mablag'larni qaytmi yoki qaytmaslik asoslarini baholash;
- v) investisiya loyihasini moliyalashtirishda davlat ulushini baholash;
- g) investisiyalarni davlat byudjeti hisobiga moliyalashtiradigan korxonalar uchun maxsus tuzilmani yaratish.

Pudratchi bilan uzil kesil hisob – kitob qilish, buyurtmachi tomonidan qurilish tamom bo'lganda va byudjet mablag'lari hisobidan moliyalashtirilgan ob'ekt foydalanishga topshirilganidan keyin amalga oshiriladi. (O'z.R.VM 12.05.2004 yildagi 226 – son Qarori).

Bundan avans miqdori xarid qilinadigan asbob-uskunalar, buyurtmachi tomonidan materiallar etkazib berish, pudrat tashkilotlariga avans to'lash miqdorini hisobga olgan holda aniqlashtirilishi mumkin.

Kapital qo'yilmalarni mablag' bilan ta'minlash uchun buyurtmalari har chorakda Moliya Vazirligiga to'lovlar sxemasi bilan birgalikda mablag' bilan ta'minlash hisob-kitobini, hamda markazlashtirilgan kapital qo'yilmalarini mablag'

bilan ta'minlashga ajratilgan byudjet mablag'laridan foydalanilishi to'g'risida xisobning belgilangan shakli bo'yicha axborot ham taqdim etadilar. Davlat byudjeti hisobidan mablag' bilan ta'minlashni rasmiylashtirish uchun buyurtmachilar mablag' bilan ta'minlovchi banklarga O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2003 yil 12 sentyabrdagi 395 – sonli qaroridagi 2 – ilovasiga muvofiq quyidagilarni taqdim etadilar:

- qurilishlarning aniq mo'ljalli ro'yxati;
- qurilishning titul ro'yxati;
- buyurtmachi bilan pudratchi o'rtasida tuzilgan shartnoma nusxasi;
- pudrat tashkilotining qurilish tavakalchiliklarini sug'urtalash yuzasidan shartnoma nusxasi;
- qurilish – montaj ishlarini bajarishga Davlat arxitektura qurilish ko'mitasining ruxsati.

Byudjet krediti olish uchun, uning qaytarilish ta'minoti bo'lib, tijorat banklari kafilligi, mol-mulk garovi, likvidli mablag'lar, jumladan, aksiyalar va boshqa qimmatli qog'ozlar hisoblanadi.

Byudjet krediti olgan yuridik shaxs byudjet kreditlari summasi va unga hisoblangan foizlarni o'z vaqtida qaytarishlari, shu bilan birga, byudjet kreditidan maqsadli foydalanishlari shart. Bundan tashqari ular byudjet kreditidan foydalanish to'g'risida kerakli moliya organlariga hisobot va ma'lumotlar taqdim etishlari shartdir.

Shuningdek, investisiyalarni tashkil etishda Markaziy bankning “Tijorat banklarining kredit siyosatiga nisbatan qo'yiladigan talablar to'g'risida” gi Nizomi va boshqa amaldagi qonun hujjatlarga muvofiq ishlab chiqilgan va O'zbekiston Respublikasi Hududida banklar tomonidan xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning uzoq muddatli kreditlash jarayonlarini tartibga soladi.

Investisiya dasturiga kiritilgan loyihalar bo'yicha Vazirlar Mahkamasining 2003 yil 12 sentyabrdagi 395-son Qarorida (tegishli ilovalari) va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005 yil 8 noyabrdagi Farmonida shuningdek, Vazirlar Maxkamasining 15 noyabr 2005 yildagi 251 – sonli

Qarorida nazarda tutilgan barcha me'yoriy-huquqiy talablar hisobga olinishi zarur.

Kreditlanayotgan ob'ekt qiymatining kamida 30 % i o'z yoki boshqa xil moliyalash manbalari bilan ta'minlangan qurilish ob'ektlarini kreditlash uchun tavsiya etiladi, lekin amaliyotda muhim investisiya loyihalari uchun istisno tariqasida bu me'yordan past bo'lishi mumkin. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori bo'yicha Moliya vazirligi kafolati ostida, shuningdek byudjetdan tashqari fondlarning kredit liniyalari hisobidan kreditlanadigan ob'ektlar bundan mustasno.

Investision faoliyat kachonki investision jarayonda ishtirokchilarini barcha munosabatlarini boshqarish mexanizmi va shunga mos infrastruktura(moliyaviy tizimi)ni shart sharoitlari tashkil etilgandagina bu kutgan natijaga olib boradi.

Investision infrastruktura²³ ma'lum (investision va boshqa) jarayonlarni ishlab chiqarish va ularning buxgalteriya hisob kitobi tartiblarini o'z tarkibiga kiritib; moliyaviy vositalar savdosi bilan shug'ullanuvchi kliring-hisob kitob tashkiloti; moliyaviy tizim ishtirokchilarini o'za'ro munosabatlari ustidan nazorat qiluvchi, boshqarib turuvchi organ hisoblanadi.

Iqtisodiyotni barcha jabxalarida ayniqsa investision jabhasida davlat ijobiy rol o'ynab, bu mamlakat iqtisodiy faoliyati samarasini ishirish imkoniyatini beradi, biroq chetga chiqish mumkin bo'lmagan chegaralarni va ta'sirlar darajasini bilmok zarur.

Investision tizimni asosiy bosh funksiyasini moliyaviy mablag'larni taqsimlashni samarali ko'rinishda yoki aniqroq qilib, bu tizimni asosiy funksiyasi yoki 6 bazalik haqidagi tahlillarning umumiy darajasini aytish mumkin.

- mamlakat chegarasi orqali yoki iqtisodiyotni boshqa tarmogiga iqtisodiy mablag'larni vaqtlar bo'yicha joylashtirish usullarini ta'minlash:

-risklarni boshqarish usullarini ta'minlash:

-mos holdagi savdo bo'yicha kliring va hisob - kitoblarni amalga oshirish usullarini ta'minlash:

²³ Ilovaga qarang

-turli hil korxonalar miqyosida moliyaviy mablag`larni jamlash va taqsimlash mexanizmini ta'minlash:

-iqtisodiyotni turli hil tarmoqlarini qarorlar qabul qilishni markazlashgan jarayonini korrdinatini talab qiluvchi baholar to`g`risidagi ma'lumotlar bilan ta'minlash:

-muammoli qarorlarni rag`batlantirish usullarini ta'minlash.

Investisiyalarni tashkil etishda asosiy qonuniy va xuquqiy asoslar kelgusida investision infratuzilmani xar tomonlama faol sur`batlarda o`lishini ta'minlashning muhim omili bo`lib xizmat qiladi.

1.3.Investisiyalarni samaradorlik ko`rsatkichlari

Bozor iqtisodiyoti sharoitida qo`yilgan kapital va uning daromadini xatarlarsiz qaytishi asosiy investison muxitni shakllantirishga muhim omil bo`lib xizmat qiladi. Buning uchun investision jarayon ishtirokchilari uchun axamiyatli bo`lgan xususiyatli tomonlaridan asosiysi bu qo`yilgan investisiyalarni samarasini oldindan bilishdir. Xar bir investor qo`yilgan kapitalni samaradorlik ko`rsatkichlarini avvaldan tashkil etilgan prognoz ko`rsatkichlari orqali bilishi lozim. Xar qanday investision loyixaning asosiy parametrlarini o`z ichiga olgan makroko`rsatkichlari esa loyixada belgilangan holda bo`ladi.

Investisiya hajmiga kutilayotgan daromadlilikni normasi ta'sir etadi, demak sof foyda ular uchun asosiy qo`zg`atuvchi ko`rinishda yuzaga chiqadi. (asosiy uyg`otuvchi vosita ko`rinishda).Kutilayotgan sof foyda normasi qancha yuqori bo`lsa u holda investisiya hajmi shuncha kup bo`ladi yoki aks holda uning teskarisi yuzaga chiqadi.

Investisiyalarni moliyalashtirish va bunda vujudga keladigan iqtisodiy munosabatlar turli makromuhit va mikromuhit omillari bilan belgilanadi. Makromuhit omillariga iqtisodiy (inflyasiya, soliq darajalari, mamlakatda amalga oshirilayotgan pul-kredit siyosati), siyosiy (mamlakatda siyosiy barqarorlik, qonun bazasining mavjudligi, davlat boshqaruvining barqarorligi va h.k.), ilmiy-texnikaviy (fan va texnika taraqqiyoti darajasi, sanoat qudrati, mamlakatda amalga

oshirilayotgan sanoat siyosati va h.k.) sabablar kiradi. Mikromuhit omillari jumlasiga mamlakatda rakobat darajasi, investisiyalash vositalaridan foydalanish imkoniyatlari va boshqalar kiradi.

Investision sferasidan kelib chiquvchi jarayonlar iqtisodiyotni umumiy iqtisodiy tomonlaridan; jumladan, ko'p hollar da ishlab chiqarish va inflyasiyani dinamikasi, YAIM ni o'sishi, moliya-kredit tizimini holati va talabni barqarorlik darajasidan kelib chiqadi. Davlatni bozorli ho'jalik tizimiga o'tishda, o'z navbatida investision jarayonni yangi usulini shakllantirishni talab etadi. Investision sferadagi salbiy holatlar iqtisodiyotni real sektorini texnologik rivojlantirish va innovasion darajasini va asosiy fondlarni ishlab chiqarishni sifatli tavsifiga salbiy ta'sir etadi. Bunday holdan chiqish uchun ho'jalik sub'ektlarni innovasion shaklga shakllantirish va iqtisodiy jarayonni investision shaklini tashkil etish, moliyaviy mablag'larni yangi manbalarini tashkil etish hisobiga investisiyani barqaror o'sishini ta'minlash kiradi.

Investision mablag'lar, bular tartib bo'yicha chegaralangan bo'lib, shuning uchun qo'proq uni iqtisodiy samaradorlik tomonga yo'naltirishdan va iqtisodiy extiyotsizlikni (extiyotkorlik)-ta'minlashga ahamiyat qaratmok zarur.

Kapital ortishining manbasi va investisiyalashning maqsadi loyihani amalga oshirishdan keladigan sof foyda hisoblanadi. Amaliyotda sof foyda hajmi(P) investision harajatlar(IZ) bilan taqqoslanadi va uning samarasi topiladi.

$$IS = F / IZ * 100$$

Investision harajatlar bilan moliyaviy natijalarni taqqoslash jarayoni uzluksiz yuzaga chiqadi: uning davrida investisiya qilingunga qadar (investision loyihani biznes rejasini ishlab chiqish davrida) va investisiya qilingandan so'ng (yangi ob'ektni ishga tushirish davrida) gi davr yotadi.

Iqtisodiyotning bozor munosabatlariga o'tishidan avval kapital qo'yilmalar va yangi texnikaning mutloq va solishtirma iqtisodiy samaradorligi usullari keng qo'llangan. Ularga investisiyalar ob'ektini yaratish va amalga oshirish natijasida olish mumkin bo'lgan xalq xo'jaligi samarasi ko'rsatkichi asos qilib olingan.

Mutloq iqtisodiy samaradorlik foydani (tannarxning pasayishi va b.) unga sabab bo'lgan potensial qo'yilmalarga nisbati sifatida hisob-kitob qilinadi.

Solishtirma iqtisodiy samaradorlik keltirilgan xarajatlar usuli bilan hisob-kitob qilinadi. Bu usul kapital qo'yilmalar yoki unga teskari ko'rsatkich – diskontlash va keltirilgan xarajatlarni hisoblash uchun har xid ahamiyatga ega bo'lgan samaradorlik normativ koeffitsientining direktiva asosida belgilangan o'zini qoplash normativ muddatidan foydalanishga asoslanadi.

Ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlari investisiyaning butun jamiyat uchun ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlarini, jumladan, loyiha bo'yicha bevosita xarajatlar va natijalarni ham, tashqi xarajatlar va natijalarni – iqtisodiyotning yondosh tarmoqlarida, ekologik, ijtimoiy hamda mos keluvchi nomativlar va uslubiy materiallar mavjudligida miqdoriy shaklda hisobga olinadigan boshqa tashqi iqtisodiy samaralarni ham hisobga oladi.

Investisiyalarning *Investisiya loyihasi samaradorligini baholash usullari* bu - turli ob'ektlar (loyihalar, chora-tadbirlar) foydaliligi va ularning o'zini qoplash istiqbollari baholash maqsadida uzoq muddatli kapital kiritishning maqsadga muvofiqligini aniqlash usullaridir.

Ma'lumki, investisiyalarga ularni sotishdan olingan foydani bir qismi bilan birga kiritilgan kapital kelajakda foyda (daromad) olish maqsadida aktivlarga qayta investisiyalanadi. SHu nuqtai nazardan loyihalarning ayrim detallari unchalik jiddiy bo'lib ko'rinmasligi mumkin. Unda:

unga nima va qanday holatlar sabab bo'lgan, uning asosiy maqsadi nimada, u nimaga kerak, qachon va nima uchun amalga oshiriladi;

- firmaning joriy va kelajakdagi faoliyatiga ta'sir ko'rsatuvchi harakatlar;
- tashkiliy tuzilmaning, mahsulot sifati, ishlab chiqarish hajmi, ekologiya va boshqalarning o'zgarishi yoki o'zgarmasligi;
- loyihani amalga oshirish natijalariga erishish uchun kerakli muddat (masalan, loyiha quvvatiga erishish, buning uchun qancha asbob-uskuna kerak bo'ladi, uning kelib tushish muddati, sotuv narxi va b.);
- investor va investisiyalash hajmi.

Investisiya loyihasini avvalo uni texnik jihatdan bajarish mumkinligi, ekologik xavfsizligi, shundan keyin iqtisodiy samaradorligi nuqtai nazaridan baholash lozim.

Investisiya loyihalarini turli usullar bilan baholash mumkin, biroq istalgan usuldan foydalanishda (ekologik, ijtimoiy va boshqa ayrim loyihalardan tashqari) investisiyalar ta'minlaydigan daromad darajasini va ular keltiradigan qo'shimcha foyda hajmini bilish zarur.

Moliyaviy-iqtisodiy ko'rsatkichlar qatoriga loyiha qiymati, diskontlash yo'li bilan olingan sof joriy qiymat, foyda, rentabellik (investisiyalar qaytimi), ichki foyda me'yori (loyiha bo'yicha tushumlar joriy hajmi investisiyalar joriy qiymatiga, sof joriy qiymat ko'rsatkichi esa nolga teng bo'lgan koeffisient), o'zini qoplash davri va hokazolar.

Normativ ko'rsatkichlar qatoriga esa huquqiy ko'rsatkichlar (milliy va xalqaro huquq me'yorlari), konvensiyalar va standart talablari, patent layoqati va intellektual mulk huquqiga amal qilishning boshqa shartlarini kiritish mumkin. Ulardan birontasiga amal qilmaslik samarali loyihani bajarib bo'lmaydigan qilishi mumkin.

Resurs ko'rsatkichlari ham loyihani amalga oshirishning potensial imkoniyatini belgilab beradi. Ular quyidagi guruhlariga taqsimlanadi: *ilmiy-texnik resurslar* – kerakli ilmiy-texnik asoslarning, mos keluvchi malakali mutaxassislar mavjudligi; *ishlab chiqarish resurslari* –ushbu loyihani amalga oshirish uchun ishlab chiqarish quvvatlari va moddiy resurslar mavjudligi; *texnologik variantlar* – raqobatlashuvchi texnologiyalarni baholash; moliyaviy resurslar hajmi va manbalari va hokazolar.

Investisiya loyihasini yaratish va amalga oshirish jarayoni dinamik jarayon ekanligi sababli uni tavsiflash uchun kompyuter texnikasi yordamida amalga oshiriluvchi imitasion modellardan foydalaniladi. Sanoati rivojlangan mamlakatlarda yirik sanoat va moliya korporasiyalari o'z rivojlanishi va kapitalni sa arali joylashtirish uchun matematik modellarni yaratadilar. Matematik modellashtirish vositalaridan investisiya loyihalari samaradorligini mijozlar

buyurtmasi bo'yicha bajarayotgan turli maslahat firmalari ham keng foydalanmoqda.

Hozirgi paytda xorijiy, shuningdek, mamlakatimiz amaliyotida foydalanilayotgan bir qator usullarni ikkita asosiy guruhga birlashtirish mumkin. Birinchi guruhni investisiyalarni samarasini baholashning statik usullari (ba'zida oddiy yoki an'anaviy deb ham ataladi) tashkil qiladi: konsepsiya, diskontlashdan, jumladan, kapitalga foyda me'yori (o'rtacha, hisob-kitob yoki yillik), investisiyalarning o'zini qoplash muddati, zararsizlik nuqtasini topish va boshqalardan foydalanishni ko'zda tutadigan usullar. Ikkinchi guruh so joriy qiymat (sof keltirilgan qiymat) usuli, ichki foydalilik (daromadlilik) me'yori, diskontlangan o'zini qoplash davri, investisiyalar rentabelligi, annuitet kabi diskontlashdan foydalanishga asoslangan dinamik usullar kiradi.

Investisiyalarni samaradorlik ko'rsatkichlarini aniqlashdan asosiy maqsad;

-investision quyilmadan keladigan moliyaviy qaytimni eng yuqori darajasini ta'minlash;

-investision ko'yilmani optimallashtirish bo'lsa;

- iqtisodiy va ishlab chiqarish potensialini oshirish;

-investisiyani amalga oshirish jarayonida riskni kamaytirish;

-investisiyani amalga oshirishda yangi muqobil variantlarni tanlashni tezlashtirish;

-va boshka yuqoridagilarga o'xshash ko'zlangan maqsadlarga erishishdan iborat.

Investisiyalarni samaradorlik ko'rsatkichlari ikki mezonlarga asoslanadi;

-tijorat nuqtai nazaridan belgilangan ko'ratkichlarga asoslanadi;

-ijtimoiy nuqtai nazaridan belgilangan ko'rsatkichlarga asoslanadi;

Investisiyalarning tijorat nuqtai nazaridan belgilangan ko'rsatkichlar ikki xil ko'rinishga ega;

1) Moliyaviy koefisientlarni hisoblashga asoslanadigan;

2) Iqtisodiy samaradorligini hisoblashga asoslanadigan;

Moliyaviy koefisientlarni hisoblashga asoslangan koefisientlar sof foyda haqidagi xisobotlarga, pul mablag`lari xarakati oqimi xaqidagi hisobotlarga va balans ma'lumotlariga asoslanadi.

Iqtisodiy samaradorlik ko`rsatkichlar kapital quyilmalarini muqobil variantlarini xisob foiz stavkasiga asoslangan bo`ladi. Iqtisoiy samaradorligini hisoblashga asoslangan ko`rsatkichlar ikki xilga bo`linadi:

- 1) Oddiy (statistik)usul;
- 2) Diskontlangan(dinamik) usullarga bo`linadi.

Oddiy statistik usulda investision daromad va xarajatlar rejadagi davrni boshiga bo`lgan ma'lum davrga olinib, barcha o`zgarish va boshqa holatlar mazkur davr ichida inobatga olinadi. Oddiy usullarda sof foyda normasini oddiy hisoblash va qoplanish muddatiga asoslangan holda amalga oshiriladi.

Dinamik usulda daromad va xarajatlar qaysiki belgilangan davrlar uchun investisiyalarni uzoq muddatli joylashtirishga asoslangan bo`ladi. Diskontlangan(dinamik) usullarda investisiyalardan keladigan sof daromad, sof diskontlangan daromad, ichki daromadlilik normasi va qoplanish muddati ko`rsatkichlariga asoslangan bo`ladi.

Shuning bilan birga investisiyalarni samaradorligini dinamik usulda hisoblangan ko`rsatkichlari:

- kutilayotgan natijani jami xarajatlarga nisbatini xisoblash usuli;
 - Annuitet usuli;
 - Sof joriy qiymatni aniqlash usuli(SJQ –NPV);
 - Sof kelgusi qiymat(NFV)ni hisoblash usuli;
 - Ichki sof foyda normasi(IRR) yoki kapital quyilmani qoplanish kefisienti(ID)ni hisoblash usuli;
 - «Daromadlilik indeksi» usullariga asoslanadi.
- Oddiy usullarda esa:
- Zararsizlik nuqtasi;
 - Kapital quyilmani daromadlilik nomasi;
 - muqobil varinatlarni qoplanish muddatlarini taqqoslash usullariga asoslanadi.

Investisiyaning ijtimoiy nuqtai nazaridan belgilangan ko`rsatkichlarga asoslanish bu asosan davlat nuqtai nazaridan quyidagi keltirilgan mezonlarga asoslanadi;

- korxonaning yashash davriyligi orqali :

- ish bilan bandlik darajasi orqali:

- ta'lim va sog`liqni saqlash bo`yicha xalqaro indekslar orqali iqtisodiy ko`rsatkichlari belgilangan.

Investisiya siyosati (inglizcha – investment policy) – bu ichki va tashqi siyosatning umumiy yo`nalishini hisobga olishda mablag`lardan foydalanish bo`yicha eng yukori iqtisodiy samaradorlikka erishish maqsadida mamlakatning ichida va chet ellarda amalga oshiriladigan kapital qo`yilmalarning yo`nalishini va to`planishini belgilaydigan ijtimoiy-iqtisodiy va xo`jalik echimlarining majmuidir.

Qimmatli qog`ozlar bozorining rivojlangan darajasini xolatida esa fond bozorlaridagi aksiya bozorlarini ulushi, tuzilgan birjali shartnomalar soni, sotilgan qimmatli qog`ozlar hajmi va uning tarkibidagi aksiya, korxona aksyasi, obligasiya, davlat obligasiyasi va boshqalarni ulushi hisobga olinadi.

Kuchmas mulk va asosiy fondlar bozori holatini aniqlashda ko`chmas mulkni amalga oshiruvchi ishlayotgan va firmalar soni, asosiy fondlar va uning tarkibidagi uy joy fondlarni ulushi, sotilgan asosiy fondlar va uning tarkibida yashash uylarning ulushini hisobga olish lozim.

Pul bozorining rivojlangan darajalariga baho berishda pul resurslarni sotish xajmi, shundan;depozitlar, banklararo kreditlar va tijorat kreditlarni ulushi, sug`urta bozorini rivojlanganlik darajasiga, aholi jamg`armasini summasi, Markaziy bankning banklararo kreditlar bo`yicha stavkalarni inobatga olish lozim va muhim hisoblanadi.

2–BOB. INVESTISIYALARNI SAMARADORLIGINI ANIQLASH MEHANIZMINING TAHLILI

2.1. Investisiyalarni samaradorligini aniqlashning zamonaviy tartibining tahlili.

Iqtisodiyotni barcha jabxalarida, ayniqsa investisiyanig barcha jabhalarida davlat bevosita ta'sir etib, bu mamlakat iqtisodiy faoliyati samarasini oshirish imkoniyatini beradi, biroq har bir investor chetga chiqish mumkin bo'lmagan chegaralarni va ta'sirlar darajasini avvaldan bilishni talab etadi. Bu to'g'ri moliyaviy qaror qabul qilishga yordam beradi. Bunda doimo investision tizimni umumiy holatini hisobga olgan holda ishlab chiqiladi va bu qaysiki shu vaqtning o'zida uning ishtirokchilarini harakatini olib boradi. Bu samarali qaror qabul qilish uchun investision tizim faoliyati tamoyillarini chuqurroq tushunishni zarur qilib qo'yadi.

Investisiyalarni iqtisodiy samaradorligi YAIM, uningi aholi son boshiga, asosiy kapitalga qo'yilgan investisiya, eksportda investisiyalarni va tarmoqlarni rivojlanishi va ularning YAIMga nisbati orqali belgilab chiqamiz.

Investision jarayonni iqtisodiy mohiyatiga nazar tashlaydigan bo'lsak, avvalo mazkur munosabatlardagi "iqtisodiy asos" kuproq rol o'ynaydi. Chunki faoliyatni amalga oshirishdan asosiy maksd kandaydir ko'zlangan maqsad uning ortida kanday bo'lishidan qat'iy nazar samara yotadi. Bu o'z navbatida mazkur faoliyatini keng faollovishiga bevosita bog'liq bo'ladi

Haqiqiy loyihalarga qo'yilgan investisiyalar-vaqtlar bo'yicha uzoq muddatli jarayonligi bilan harakterlanadi. SHu sababli baholash jarayonida quyidagilarga e'tibor berish kerak:

- loyihaning riskliligiga-harajatlarni qoplash muddati qancha uzoq bo'lsa uning investision riskliligi shuncha yuqori bo'ladi:

- pulning vaqtinchalik qiymati vaqt o'tishi bilan infliasiya natijasida uning kadri-qiymatini yo'qotishi:

- loyihaning jozibadorligi boshqa variantlarga nisbatan qo'yilgan kapitalni daromadlilik darajasini kompaniya aksiyasi ko'rs qiymatini risklilik darajasi

kamrok bo'lgan sharoitda imkoniyat darajada oshirish, investor uchun bu maqsadni aniqlash imkoniyatini mavjudligi.

Maqsadlar qiymat ko'rinishda quyidagicha bo'ladi:

- sof foydani yuqorligini ta'minlash;
- sotish hajmini o'stirish;
- tovar aylanishini oshirish;
- joriy harajatlarni kamaytirish;
- investisiya harajat larni kamaytirish va boshqalar.

Bundan tashqari loyihani maqsadlarini bilish bilan birga ko'zga ko'rinmaydigan uning pul ko'rinishda bo'lmaydigan maqsadlari ham yotadi. Bularga quyidagilar kiradi:

- aniqlilik va sivilizasiyaga intilish;
- bozor segmentlarini aniqlashga erishishi;
- tob'elikka barham berish;
- ijtimoiy dasturlarni amalga oshirish;
- ekologik holatlarni yaxshilash va boshqalar.

Bu omillar investisiyani samarasini baholashga ta'sir etib, buni loyihani boshlang'ich davrlarida hisobga olmoq zarur.

Loyihani maqsadliligini ko'rib chiqayotganda, uning quyidagi asosiy tomonlarini hisobga olmoq zarur:

1. Jalb qilingan uzoq muddatli mablag'larni qoplash muddati uzoq bo'lgan yo'nalishga kapitalni moliyalashtirish:
2. Risklilik darajasi past bo'lgan yo'nalishga shaxsiy mablag'lar hisoblariga moliyalashtirish:
3. Investorning investisiyani yuqori daromad keltiruvchi yo'nalishlarni tanlashi :
4. Mazkur kapital qo'yilmadani olinayotgan sof foyda hajmi bank omonatiga qo'yilgan mablag'ni joylashtirishdan kelgan daromaddan oshirish zarur:
5. Investisiyaning rentabelligi inflyasiya indeksidan yuqori bo'lmog'i zarur:

6. Vaqt omili orqali aniq investision loyihani rentabelligi hamma vaqt boshqa loyihalarni daromadliligidan yuqori bo'lmog'i zarur.

Ko'p investision loyihalar uzoq muddatli qo'yilmani talab qilib, bular 3 ga bo'linadi: 1) Yangi tovar ishlab chiqarishga ixtisoslashtirish; 2) mahsulot tannarxini kamaytirish; 3) amaldagi ishlab chiqarish fondlarini almashtirish.

Investisiya loyihalarining texnik-iqtisodiy asoslanishida *biznes-rejasi qo'yidagilar uchun zarur*:

-*investorga* – kapitalni sarflashning maqsadga muvofiqligini (samaradorligini) belgilash uchun;

-*tadbirkorga* – loyihani amalga oshirish jarayonidagi harakatlar dasturini va raxbarlikni ishlab chiqish uchun;

-*davlat organlariga* – kredit borasidagi o'zaro munosabatlarni tartibga solish va nazorat qilish uchun.

Investisiyalarni samaradorligini baholashning asosiy ob'ekti, bu investision hujjatlar (investisiyani texnik – iqtisodiy asoslash)ni asoslashdir. Investisiyalarni samaradorligini baholashdan asosiy maqsad bu investisiyalarni moliyaviy va iqtisodiy samaradorligini aniqlab berish, investisiyani smeta – harajatlari va moliyalashtirish manbalarini aniq belgilash hamda, rikslarni baholashdir.

Investisiyalarni samaradorligini baholashni asosiy yo'nalishlariga texnik tashkiliy, huquqiy, ekologik, tijorat iqtisodiy, moliyaviy yo'nalishlarini kiritishimiz mumkin.

Kapital qo'yimlarning samaradorligini baholashda vaqt omilini hisobga olmaydigan quyidagi usullardan foydalaniladi:

- kapital qo'yimlarning mutloq iqtisodiy samaradorligi;
- sarflangan mablag'ning qoplanish muddati;
- keltirilgan sarf.

Kapital qo'yimlarning mutloq iqtisodiy samaradorligi quyidagi formula bilan hisoblanadi:

$$\mathcal{O} = \Pi / K \quad (6.1)$$

Bu erda: P – har yilgi daromad;

K – mablag`lar sarfi.

Bu ko`rsatkich samaradorlik belgilanganlik me'yoridan katta bo`lish kerak, $E \geq E_n$.

Avval E_n – xukumat tashkilotlari tomonidan markazlashtirilgan holda joriy etilgan. Hozirgi kunda E_n sifatida bank foiz o`lchovidan (i) foydalanmoqda yoki o`z loyihasini uchun belgilangan kattalikni olishlari mumkin.

Sarflangan mablag`ning qoplanish muddati quyidagi formula bilan hisoblanadi:

$$T = \frac{K}{\Pi} \leq T_n \quad (6.2)$$

Bir necha taqqoslanishi mumkin bo`lgan investisiya loyihalari uchun quyidagi formuladan foydalaniladi:

a) bir yilga keltirilgan, $KS = K * E_n + S$; (6.3)

b) qoplanish muddatiga keltirilgan,

$$KS = T * S + K; \quad (6.4)$$

Bu erda: K – kapital qo`yilmalar hajmi;

S – ishlab chiqarilgan mahsulot tannarxi;

E_n – norma yoki kapital qiymati.

Kapital qo`yilmalar hajmi, asosan, ikki manba hisobidan shakllantiriladi: markazlashgan va markazlashtirilmagan qo`yilmalar. Markazlashgan qo`yilmalar ustivor investision loyihalarni moliyalashtirish uchun ajratiladi, xususan, injener - texnik infrastrukturasi yaxshilash, uy-joy qurilishini tashkil etish, moddiy va texnik bazani yaxshilash uchun ishlatiladi.

Investisiya loyihasini yaratish va amalga oshirish jarayoni dinamik jarayon ekanligi sababli uni tavsiflash uchun kompyuter texnikasi yordamida amalga oshiriluvchi imitasion modellardan foydalaniladi. Bu modellarda o`zgaruvchilar sifatida investisiya loyihasining texnik-iqtisodiy va moliyaviy ko`rsatkichlari, shuningdek, tashqi iqtisodiy muhitni tavsiflovchi sotuv bozori tavsifnomasi, inflyasiya, kreditlar bo`yicha foizlar kabi ko`rsatkichlardan foydalaniladi.

Matematik modellashtirish vositalaridan investisiya loyihalari samaradorligini mijozlar buyurtmasi bo'yicha bajarayotgan turli maslahat firmalari ham keng foydalanmoqda.

Xarajatlarni hisoblash aossida qoidaga ko'ra muqobil qiymat tamoyili yotadi, ya'ni investisiya loyihasiga sarflanuvchi resurslar bahosi ulardan muqobil variantlarda foydalanishda olish mumkin bo'lgan samara (ayni paytda ma'lum bo'lgan kapitalni boshqacha qo'llash samarasining eng kattasi) bilan taqqoslanadi. Taqqoslash uchun baza sifatida masalan, depozit qo'yilmalar bo'yicha tamoyil yoki investisiyalardan boshqa biron-bir joyda foydalanish natijasida olingan foyda xizmat qilishi mumkin.

Hozirgi paytda xorijiy, shuningdek, mamlakatimiz amaliyotida foydalanilayotgan bir qator usullarni ikkita asosiy guruhga birlashtirish mumkin. Birinchi guruhni investisiya loyihalarini baholashning statik usullari (ba'zida oddiy yoki an'anaviy deb ham ataladi) tashkil qiladi: konsepsiya, diskontlashdan, jumladan, kapitalga foyda me'yori (o'rtacha, hisob-kitob yoki yillik) investisiyalarning o'zini qoplash muddati, zararsizlik nuqtasini topish va boshqalardan foydalanishni ko'zda tutmaydigan usullar. Ikkinchi guruh sof joriy qiymat (sof keltirilgan qiymat) usuli, ichki foydalilik (daromadlilik) me'yori, diskontlangan o'zini qoplash davri, investisiyalar rentabelligi, annuitet kabi diskontlashdan foydalanishga asoslangan dinamik usullar kiradi.

Ssuda oluvchi (qarzdor), aytaylik, iste'molni moliyalashtirish yoki kapital aktivlarni oshirish (xarid qilish) va hokazolarga ma'lum miqdorda pul mablag'larini qarzga olish uchun kreditorga to'lashi lozim bo'lgan foiz *foiz stavkasi* (ingl. *interest rate*) yoki *foyda me'yori* (kredit uchun bank stavkasi) deb ataladi.

Pul kapitali qiymatini oshiruvchi *nominal foiz stavkasi* (foyda me'yori) ham ajratib ko'rsatiladi. U joriy kurs bo'yicha inflyasiyani hisobga olmasdan ifodalanadi hamda bunugni kunda berilgan kreditga nisbatan ma'lum vaqt o'tgach, kapitalning necha foizga o'sishini ko'rsatadi. *Real foiz stavkasi* esa haqiqatda xarid

qilish mumkin bo'lgan mahsulot (tovar, xizmat) miqdori bilan o'lchanadi (pul kapitalining xarid layoqatining ahvoli va o'sishini aks ettiradi).

Foizlar bo'yicha hisoblangan summalar ularning hisoblanishi bilan to'lab borilishi yoki qarz summasiga qo'shib borilishi mumkin. Foizlar *oddiy* va *murakkab* bo'lishi mumkin.

Investisiyalar samaradorligini baholashda bo'lajak va joriy pul qiymati kabi tushunchalardan foydalaniladi. Buni shu bilan izohlash mumkinki, investisiyalash uzoq muddatli jarayon bo'lib, unda mablag'lar qiymatini jarayonning boshida va ularni bo'lajak foyda, amortizasiya ko'rinishda qaytib olishdagi qiymati taqqoslanadi.

Pulning bo'lajak qiymati bu – ularning ayni paytda investisiyalangan, biroq ular (pul mablag'lari) ma'lum vaqt o'tgandan so'ng foiz stavkasini hisobga olgan holda ega bo'ladigan qiymatidir. Uni hisob-kitob qilish bu qiymatni boshlang'ich summaga qabul qilingan stavka bo'yicha foiz to'lovlarini qo'shish yo'li bilan oshirishga bog'liq.

Pulning joriy (zamonaviy, hozirgi) *qiymati* bu – foiz stavkasidan foydalangan holda joriy davrga keltirilgan bo'lajak pul tushumlari summasi. Bu jarayon pul mablag'lari yakuniy hajmi kelishib olingan holatda o'stirishga teskari bo'ladi va mablag'larning bo'lajak (yakuniy) qiymatidan foiz to'lovlarini chiqarib tashlash yo'li bilan aniqlanadi. Pulning joriy qiymatidan ma'lum vaqt o'tgandan so'ng belgilangan summani olish uchun bugungi kunda qancha mablag' kiritish kerakligini aniqlash zarur bo'lgan hollarda foydalaniladi.

Oddiy foizlar bo'yicha aniqlanadigan pulning bo'lajak qiymati (ularning o'stirilgan summasi) quyidagicha aniqlanadi:

$$P = K(1 + tE), (7.1)$$

bu erda

R - o'stirilgan summa (kreditor kelajakda ma'lum vaqt o'tgandan so'ng oladigan summa).

$$(1 + tE) (7.2)$$

ifodasi oddiy foizlarni o`stirish koeffisienti (ko`paytiruvchisi) deb ataladi. Uning qiymati doimo 1 dan katta bo`ladi.

Amaliyotda daromadlilik me'yori (E) doimiy bo`lmagan, avvalo, investisiyalash davri va mazkur biznes turi bilan aloqador risk darajasiga bog`liq ko`rsatkich hisoblanadi. Masalan, investisiya davri qanchalik uzoq va (yoki) biznes qanchalik riskli bo`lsa, daromadlilik me'yori shunchalik katta bo`ladi va aksincha. Davlat qimmatli qog`ozlari yoki davlat bankiga mablag`lar kiritish kamroq riskli hisoblanadi. Biroq daromadlilik me'yori bu holatda biroz pastroq bo`ladi.

Murakkab foizlar bo`yicha foiz to`lovlarini hisoblash «foizga foiz» hisobini yoki *kapitallashtirishni* – yangi olingan daromadlar (foizlar) yoki ularning bir qismini kapitalga yo`naltirishni anglatadi. Uning eng tarqalgan turlari: investisiyalardan sof pul oqimini kapitallashtirish – uni qayta investisiyalashga yo`naltirish (ilgari kiritilgan investisiyalarni ulardan olingan foyda (daromad) hisobiga o`stirish shaklida kapitalni takror, qo`shimcha kiritish); depozit foizi summasini kapitallashtirish – uni depozit qo`yilmasini o`stirishga yo`naltirish; sof foydani kapitallashtirish – uning ma`lum bir qismini ishlab chiqarishni rivojlantirishga yo`naltirish hisoblanadi. Agar qarz mavjud bo`lsa, bu qarz bo`yicha hisoblangan foizlar muntazam asosiy qarz summasiga kiritib boriladi va unga foizlar hisoblanadi.

Foizlarni kapitallashtirishda, ular hisoblanishi bilan darhol to`lanmasdan, kreditning asosiy summasiga qo`shilib, yangi olingan summaga foizlar hisoblanganda R oshirilgan summasi hisob-kitobi murakkab foizlar formulasi bo`yicha amalga oshiradi:

$$R = K(1 + E)^t \quad (7.3)$$

bu erda

R – bo`lajak qiymat hajmi ( $t$  yildan so`ng investisiyalarning bo`lajak, yakuniy qiymati);

K – kelajakda daromad olish uchun investisiyalanuvchi joriy (hozirgi) summa miqdori tekuhaya, u PV sifatida belgilanadi (ingl. *present value*);

t – investisiyalar tijorat aylanmasida qatnashadigan standart vaqt davrlari soni (yilning tartib raqami, foizlarni har chorak yoki har oyda hisoblashda choraklar yoki oylar soni chislo).

(2.3) formulada bo`lajak qiymat bu – bugungi kunda har qanday shaklda investisiyalanuvchi va unga korxona uni qiziqtirayotgan vaqt oralig`idan so`ng (bu vaqt ichida pullar «ishlab turadi») ega bo`ladigan mablag`lar summasi hisoblanadi. Xorijiy adabiyotlarda bu ko`rsatkich ko`pincha FV qisqartmasi bilan ifodalanadi (ingl. *future value*).

Iqtisodiy va moliyaviy tahlilda loyihaning joriy va bo`lajak qiymatini o`lchash uchun diskontlash nomini olgan maxsus usul qllanadi. *Diskontlash* bu – kelajakdagi pul tushumlarini bugungi qiymatiga keltirishga imkon beradigan *diskontlash koeffisientidan* (diskont, diskont ko`paytuvchisi) foydalanish vositasida boshlashg`ich xarajatlar miqdorini (yoki yakuniy natijalarni) aniqlash usulidir. Koeffisient bank va sug`urta faoliyati sohasida iqtisodiy masalalarni hal qilishda, masalan, vaqt bo`yicha tarqoq holdagi to`lovlarni bitimning boshiga keltirish, ko`p tomonlama hisob-kitoblar, kreditlash, to`lovni amalga oshirmaslik bilan bog`liq sug`urta riski va boshqa holatlarda, shuningdek, statistik hisob-kitob va thlillarda hamda albatta, investisiyalarning iqtisodiy samaradorligini aniqlashda foydalanilmoqda.

Diskontlash murakkab (oddiy) foizlarni hisoblashga teskari jarayon hisoblanadi. Diskontlash usulidan foydalanib, belgilangan vaqt davrlari (yil va hokazolar) o`tganidan so`ng olish mumkin bo`lgan bo`lajak qiymat aniqlanadi va belgilangan foiz stavkasi bo`yicha kutilayotgan (berilgan) summaga erishish uchun ayni paytda qancha mablag` kiritilish lozimligi hisob-kitob qilinadi. (2.3) formula boshlang`ich investisiyalar  $K$  ma`lum bo`lgan holda bo`lajak summani qanday hisoblash kerakligini ko`rsatadi. Bu formula bo`yicha K boshlang`ich investisiyalar summasini topish qiyin emas:

$$K = R/(1 + E)^t. \quad (7.5)$$

Joriy qiymatni hisob-kitob qilishda e`tiborni shunga qaratish tavsiya etiladiki, diskontlash amalga oshiriladigan foiz stavkasi va uning hozirgi hajmi teskari

bog'liqlikda bo'ladi, ya'ni foiz stavkasi qanchalik katta bo'lsa, boshqa sharoitlar bir xil bo'lgan holatda hozirgi qiymat shunchalik past bo'ladi.

Investisiya loyihalarini baholashning diskontlashni qamrab olmaydigan usullari statik usullar deb ataladi. Ular, qoidaga ko'ra, xarajatlar va natijalar haqida loyiha, reja va amaliy ma'lumotlardan foydalanish, butun investisiya loyihasini amalga oshirishi davrida ularning o'rtacha yillik qiymatini statik usullar bilan aniqlashga asoslanadi yoki xarajatlar va natijalar (xarajatlar va daromadlar) vaqt bo'yicha unchalik farqlanmaydigan uzoq muddatli loyihalarni baholashda qo'llanishi mumkin. Bugungi kunda investor (tijorat banklari, boshqa moliyaviy institutlar va jismoniy shaxslar), potensial qarz oluvchilarga investisiya resurslarini ajratish shartlarini e'lon qilar ekan, odatda foyda, o'zini qoplash muddati va rentabellik darajasi kabi ko'rsatkichlar bilan cheklanib qoladi.

Statik usullardan foydalanishdan avval barcha ko'rib chiqilayotgan investisiya loyihalari yoki muqobil variantlar taqqoslasa bo'ladigan ko'rinishga keltiriladi.

Foydaning solishtirma hisob-kitobini bajarishda gap daromad va xarajatlarning o'rtacha yillik qiymati o'rtasidagi farq bilan belgilanuvchi eng katta o'rtacha yillik iqtisodiy foydaga ega bo'lgan investisiyalar loyiha variantidir.

Investisiyalarning o'zini qoplash muddatini hisoblash (ingl. *payback period*, *RR*) investisiyalarni qaytarib berish uchun zarur bo'lgan, kiritilgan mablag'larni investisiya loyihasini amalga oshirish natijasida olingan daromadlar hisobiga qoplash mumkin bo'gan vaqtni aniqlashdan iborat. O'zini qoplash muddati deganda yanayam aniqroq loyihani yakunlash paytida diskontlangan sof daromad miqdori investisiyalar miqdoriga teng bo'lgan vaqt davri davomiyligi tushuniladi.

O'zini qoplash muddatini aniqlashga ikki xil yondashuv ma'lum. Ulardan birinchisiga ko'ra boshlang'ich investisiyalar miqdori yillik (yaxshisi, o'rtacha yillik) tushumlarga taqsimlanadi.

Ushbu usulning asosiy ustunligi (tushunish va hisob-kitoblarning osonligidan tashqari) – boshlang'ich summalarining aniqligi, proektni o'zini qoplash muddatlari, demak, risk bo'yicha ham ranglarga ajratish imkoniyati hisoblanadi, chunki mablag'larni qaytarib berish davri qanchalik qisqa bo'lsa,

investisiya loyihasining birinchi yilida pul oqimlari shunchalik katta bo`ladi va demak, korxona (firma) likvidligini qo`llab-quvvatlash uchun shartlar yaxshiroq bo`ladi.

Bu usulning kamchiliklari qatoriga shuni kiritish mumkinki, u loyihani o`zlashtirish (loyihalashtirish va qurilish) davriga, pul qiymatining vaqt jihatiga e`tibor qaratmaydi, ya`ni uning foydaliligini baholamaydi

*Kapitalga foyda me`yorini hisob-kitob qilish* (ingl. *average rate of return, ARR*) yoki foydaning hisob-kitob me`yori (*accounting rate of return, ARR*) usuli investis yaloyihasini amalga oshirishdan daromad va kiritlgan kapital (loyihani amalga oshirishga investisiyalar) o`rtasidagi nisbatga yoki kapitalga foyda foizini hisob-kitob qilishga asoslanadi. Ko`rsatkich jismoniy (asosiy va aylanma) va moliya kapitalidan daromadlarga ham, inson omiliga kiritilgan kapitalga daromadlarga ham mansub bo`lishi mumkin.

Bunda «daromad» tushunchasi foyda va amortizasiya miqdori sifatida, kredit foizlar va soliqlar to`langandan keyingi daromad (sof daromad) yoki byudjetga soliq va boshqa to`lovlardan so`ng amortizasiya hisobga olinmagan foyda (sof foyda) sifatida, shuningdek, loyiha davrida o`rtacha yoki umumiy foyda massasi (umumiy daromadlar va xarajatlar o`rtasidagi farq) sifatida ko`rib chiqilishi mumkin. Hisob-kitoblarda foydalaniladigan kapital miqdori loyihaga boshlang`ich kapital qo`yilmalari, jumladan, asosiy vositalar sifatida yoki loyiha amal qiladigan davrda o`rtacha investisiya kapitali sifatida aniqlanishi mumkin.

Loyihani (chora-tadbirlarni) amalga oshirish va faoliyat ko`rsatish davrlari bo`yicha o`zgaruvchan daromadlar, xarajatlar va natijalar bilan tavsiflanadigan uzoq muddatli (bir necha yil) qo`yilmalar haqida gap borganda investisiya loyihalarini asoslab berish uchun dinamik usullar foydalaniladi. Yoki xususan, sof joriy qiymat, ichki foyda me`yori (daromadlilik, ichki foiz), rentabellik, investisiyalarning o`zini qoplashi va boshqalar qo`llanadi. Ularning orasida eng asosiysi sof joriy qiymat usuli (ingl. *net present value, NPV*) hisoblanadi, chunki boshqa usullar uning modeornizasiyasi sanaladi.

Sof joriy qiymat bu – oldindan qat’iy belgilab qo’yilgan foiz stavkasida (foiz me’yorida) investisiyalash ob’ektining butun faoliyat davrida (uning hayotiylik dari davomida) to’plangan daromadlar va xarajatlar kirimi va chiqimini har bir vaqt oralig’i uchun alohida diskontlash yo’li bilan olingan qiymatdir.

SHunday qilib, sof joriy qiymat vaqt bo’yicha taqsimlangan daromadlar va xarajatlar bilan tavsiflanadi, shu sababli investisiyalarning muqobil variantlarini to’g’ri baholash uchun pulning vaqt bo’yicha qiymati hisobga olinadi. Real sharoitlarda riskni ham e’tiborga olishga to’g’ri keladi, biroq ushbu holatda ko’rib chiqilayotgan variantlarda pul kirimi va chiqimi, pulning vaqt bo’yicha qiymati to’la aniq (riskdan xoli) hisoblanadi.

Bundan tashqari, «pulning vaqt bo’yicha qiymati» atamasi diskontlash stavkasini belgilash uchun ko’p qo’llanadi. Bularning barchasi riskdan xoli foiz stavkasidan foydalanishga imkon beradi. Soliqqa tortish nolga teng bo’lgan cheklov ham qabul qilingan.

Investisiya loyihasini tanlashni *sof kelgusi qiymat* (ingl. *net future value, NFV*) asosida ham amalga oshirish mumkin. Bunda bo’lajak qiymat deganda investisiyalash ob’ektining oxirgi foydalanish yilidagi (davridagi) barcha diskontlangan daromatlari summasi tushuniladi. Bu holatda bo’lajak daromadlarni olish uchun muddatli depozitlar bo’yicha bank foizi varianti eng ma’qul hisoblanadi, chunki pul mablag’larini ma’lum muddatga bankka qo’ygach, investor qo’yilma shartlariga muvofiq ularning o’sishiga erishadi.

SHu sababli investisiya loyihasini baholash va tanlab olish uchun sof joriy (hozirgi) qiymatdan foydalanish afzalroq hisoblanadi. Bunda u musbat qiymatga ega bo’lishi lozim.

Har qanday investisiyalarni baholash uchun quyidagi asosiy tamoyillarni ajratib ko’rsatish mumkin. Birinchidan, barcha hisob-kitoblarni bir xil qiymatdagi pulda olib borish, ya’ni barcha xarajatlar va natijalarni (vaqt bo’yicha har xil bo’lgan pul kirimi va chiqimini) kelajakda yoki hozirgi paytda bitta vaqt ko’rsatkichiga (bitta sanaga) keltirish lozim. Ikkinchidan, investisiyalarni baholash investor pul mablag’larini kiritishning muqobil variantlaridan kam bo’lmagan

daromad olgan holatlarda bajariladi. Uchinchidan, investisiyalarni shunday tanlash kerakki, ular ikkala summa bir xil pul qiymatida ifodalangan taqdirda pul tuhumlari miqdorining pul xarajatlari miqdoridan katta bo'lishini (ya'ni $CH_{ts} > 0$, musbat) ta'minlasin.

Sof joriy qiymat (diskontlangan daromad) usulidan keng foydalanish uning loyiha samaradorligini baholashning yillik tushum me'yori yoki xarajatlarni qoplash davridan foydalanish asosida yaratilgan boshqa usullariga nisbatan afzalliklari bilan izohlanadi, chunki u naqd pul oqimi grafigi va loyiha faoliyati butun muddatini hisobga oladi. Ushbu usul turli xil boshlang'ich sharoitlar kombinasiyasida etarli darajada barqarorlikka ega bo'lib, iqtisodiy jihatdan oqilona qarorni topish va investisiyalash natijalarining eng umumlashgan tavsifnomasini (uning mutloq shakldagi yakuniy samarasini) olishga imkon beradi.

Bu usulning kamchiliklari quyidagilardan iborat: foiz stavkasi (diskont stavka) odatda butun investisiya davri (loyihaning amal qilish davri) uchun o'zgarmas deb qabul qilinadi, mos keluvchi diskont koeffisientini aniqlash qiyin, loyiha rentabelligini aniq hisob-kitob qilib bo'lmaydi. Hisoblanadiki, bu sabablarga ko'ra tadbirkorlar doim ham ushbu usulning afzalliklarini to'g'ri baholamaydilar, chunki an'anaviy ravishda kapitalni qoplash me'yori toifasi bilan fikrlaydilar.

Sof joriy qiymat usulidan foydalanish investisiyalashning tahlil qilinayotgan varianti firmaning moliyasi yoki investorning boyliklarini oshirishga xizmat qilayotganligi haqidagi masalag oydinlik kiritishi mumkin, biroq u bunday oshirishning nisbiy kattaligi haqida hech narsa demaydi. Ushbu kamchilikni bartaraf qilish uchun investisiyalar rentabelligini hisoblash usulidan foydalaniladi.

Annuitet (nem. *Annuitat* lat. *annuitas* – har yillik to'lov) – uzoq muddatli zayom turlaridan biri, unga ko'ra kreditor har yili olingan summa va foizlarni qaytarib berish hisobiga daromad (renta) oladi.

Tuzilgan shartnomalar (bitimlar) bo'yicha to'lovni bir martalik to'lov bilan yoki vaqt bo'yicha taqsimlangan bir qator to'lovlar bilan amalga oshirish mumkin. Bu, masalan, ijara to'lovi, pulni bo'lib-bo'lib to'lash sharti bilan sotib olingan mulk uchun to'lovlar, mablag'larni turli dasturlarga investisiyalash bo'lishi mumkin, ya'ni bunda bir xil vaqt oralig'ida amalga oshiriladigan to'lovlar to'lov oqimini tashkil qiladi. Umumiy to'lov summasini investisiya loyihasining yillari bo'yicha bir xilda taqsimlash usuli *annuitet* (yoki qarzni qaytarib berish hisobiga har yillik badal usuli) deb ataladi, u sof joriy qiymat usulining bir ko'rinishini ifodalaydi.

Qarzni qaytarib berish bir xil vaqt oralig'ida (har bir hisob-kitob davrining oxirida), asosiy qarz va unga nisbatan hisoblangan foizlarni qaytarib berishga imkon beruvchi bir xil ulushda amalga oshirilgan holatlarda har yillik to'lov (asosiy qarz va foizlar) hajmi quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$P_c = P_i \frac{E(1+E)^t}{(1+E)^t - 1} = P_i \bullet K_a \quad (7.29)$$

bu erda

R_s – har yillik to'lovning keltirilgan qiymati (kapitallashgan takrorlanuvchi summa), so'm.;

R_i – hozirgi umumiy to'lov qiymati (qarz miqdori), CH_{ts}, so'm.;

E – foiz stavkasi;

t – loyiha amalga oshiriladigan yillar soni;

K_a – annuitet (qarzni qaytarib berish) koeffisienti.

$$K_a = \frac{1 - (1+E)^{-t}}{E} \quad (7.30)$$

(7.30) formula bo'yicha aniqlanuvchi annuitet koeffisienti K_a qarzlarni qaytarib berish koeffisienti yoki pul birligi amortizasiyasiga badal deb ham ataladi. U pul birligining joriy qiymatini ifodalovchi K_p rentani keltirish koeffisientining aksi sanaladi, ya'ni

$$K_n = \frac{1 - (1+E)^{-t}}{E}$$

Shunday qilib, investisiyalardan daromad (foyda) olish yoki hech bo'lmaganda ularning o'zini qoplashiga erishish uchun sof diskontlangan daromad (CH_{DD}) nolga teng yoki undan katta bo'ladigan holatga erishish zarur. Bu maqsadda to'lovlar oqimi a'zolarini diskontlash uchun $CH_{DD} > 0$ ifodasini olishni ta'minlaydigan stavkani tanlab olish lozim.

Ichki foyda me'yori V_{np} (ingl. *internal rate of return, IRR*) bu – diskontlash stavkasi (foiz stavkasi) bo'lib, undan foydalanish kutilayotgan pul kirimi va chiqimining joriy qiymati tengligini ta'minlaydi, ya'ni investisiyalar summasiga ichki foyda me'yoriga teng bo'lgan stavka bo'yicha foizlarni hisoblashda vaqt bo'yicha taqsimlangan daromadni olish ta'minlanadi. U loyihani amalga oshirishda foydalanish mumkin bo'lgan xarajatlarning yo'l qo'yish mumkin bo'lgan maksimal darajasini tavsiflaydi. Masalan, agar loyihani amalga oshirish uchun bank ssudasi olingan bo'lsa, IRR qiymati bank foiz stavkasining yo'l qo'yish mumkin bo'lgan, undan oshirish loyihani zarar ko'radigan qilib qo'yuvchi yuqori chegarasini ko'rsatadi.

Matematik jihatdan bu shuni anglatadiki, sof joriy qiymatni aniqlash uchun formulalarda E ko'rsatkichi topilishi lozim bo'lib, uning uchun belgilangan R qiymatlarda $CH_{TS} \geq 0$ bo'ladi. Agar chap tomoni istalgan paytda amalga oshirish mumkin bo'lgan loyihaga kiritilgan investisiyalar diskontlangan qiymati, o'ng tomoni esa shu davr davomida barcha sof kirim oqimlari diskontlangan qiymati hisoblanuvchi tenglamani tasavvur qiladigan bo'lsak, bu tenglamaning ikkala tomoni teng bo'luvchi foiz stavkasi ushbu loyihaning ichki foyda (daromadlilik) me'yori deb ataladi.

Ichki foyda me'yori usuli, sof joriy qiymat usuli kabi qiymatni diskontlash konsepsiyasidan foydalanadi. U loyihadan kutilayotgan daromadlar zarur investisiyalar joriy qiymatiga teng bo'ladigan diskontlash stavkasini (foiz stavkasini) topishga borib taqaladi. U kompyuter vositasida maxsus dastur yordamida yoki moliyaviy kalkulyatorda hisoblab chiqiladi. Odatdagi sharoitlarda u iterativ usulda aniqlanadi. Masalan, agar kelajakdagi har bir davr uchun pul daromadlari va xarajatlar ma'lum bo'lsa, istalgan diskont stavkasidan boshlash va

uning uchun bo'lajak daromadlar va investisiyalarning joriy qiymatini aniqlash mumkin. Pul oqimlarining sof joriy qiymati musbat bo'lgan hollarda nisbatan balandroq diskont stavkasidan foydalaniladi va shu tariqa daromadlar va kiritilgan mablag'larning joriy qiymati bir tekis qilinadi.

SHunday qilib, agar tahlil qilinayotgan investisiya loyihasi bo'yicha diskont stavkasi kapitalga foizlardan katta bo'lsa, uning sof joriy qiymati (yoki keltirilgan xarajatlar va tushumlar salıdosı) noldan katta bo'ladi va loyiha samarali deb tan olinadi. Agar bu stavka kapitalga foizlardan kichik bo'lsa, loyiha foydasiz deb tan olinadi, uning CH_{tx} ham nolga teng bo'lib, investisiya loyihasi samaradorligi minimal bo'ladi, ya'ni sof joriy qiymat nolga teng bo'ladigan foiz stavkasini topish talab qilinadi.

2.2. AT “Uzsanoatqurilishbank” da investisiyalarni samaradorligi tahlili

Banklarning kapitallashuvi va investisiyaviy faolligini yanada oshirish, iqtisodiyotdagi tarkibiy o'zgarishlarning ustuvor yo'nalishlarini qayta tiklash va kengaytirish, ishlab chiqarishni modernizasiya qilish, texnik va texnologik yangilashga qaratilgan kreditlash hajmini oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Mamlakat bank tizimining respublikaning bazaviy tarmoqlari va strategik korxonalarini modernizasiya qilish va texnik qayta jihozlash bo'yicha investisiya loyihalarini, shu jumladan investisiya dasturlari va tarmoqlarni modernizasiya qilish dasturlari doirasida yirik loyihalarni moliyalashtirishdagi ishtiroki tobora faollashib bormoqda.

“O'zsanoatqurilishbank” OATB mamlakat iqtisodiyotining tayanch tarmog'i korporativ sektorini eng avvalo uzoq muddatli kreditlar berish yo'li bilan moliyalashtirishda faol ishtirok etadi.

Kredit qo'yilmalari tarkibida uzoq muddatli kreditlarning ulushi 83 foizni yoki 1918 mlrd. so'mdan ortiqni, qisqa muddatli kreditlarning ulushi esa 17 foizni yoki 394 mlrd. so'mni tashkil qiladi.

Hisobot yilida Bank faktoring xizmatlarini taqdim qilgan va lizing amaliyotlarini amalga oshirgan holda iqtisodiyotning real sektoriga qo'maklashish va faol tarzda qo'llab-quvvatlashga alohida e'tibor qaratdi.

2012 yil 1 yanvar xolatiga lizing amaliyotlari portfeli 24,9 mlrd.so'mdan iborat bo'lib, jumladan 8,0 mlrd.so'mi 2011 yilda amalga oshirildi.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2000 yil 2 martdagi "Tijorat banklari kredit siyosatiga qo'yiladigan talablar to'g'risida" gi Nizomida bankning kredit siyosatiga quyidagicha ta'rif beriladi: "Bankning kredit siyosati – kredit jarayonida yuzaga keluvchi risklarni boshqarishda bank rahbariyati tomonidan qabul qilingan choralar va uslublarni belgilovchi hamda bank rahbariyati va xodimlarini kredit portfelini samarali boshqarishga doir ko'rsatmalar bilan ta'minlovchi hujjatdir".²⁴

"O'zsanoatqurilishbank" OATBning kredit siyosatida kredit portfelini boshqarishning asosiy yo'nalishlari qilib quyidagilar belgilab olingan:

- Kredit risklari darajasiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni aniqlash, ularni baholash va bartaraf qilish;
- Qarz oluvchining kreditga layoqatlilik darajasini va uning moliyaviy ahvolini aniqlash, kredit riskini bartaraf qilish;
- Muammoli ssudalarni oldindan aniqlash va ularni so'ndirish choralarini ishlab chiqish;
- Kredit qo'yilmalarni diversifikasiya qilishni, ularning likvidligini va daromadliligini ta'minlash;
- Kredit olgan mijoz bilan doimiy aloqada bo'lib turish tomonlari ko'rib chiqilgan.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida xo'jalik sub'ektlarining, banklar faoliyatining tijoratlashuvi yuzaga keladi. Keyingi yillarda turli xil mulkchilik shakliga asoslangan korxonalar tashkil topdi. Bu korxonalar qaysi mulkchilik shakliga asoslangan bo'lishiga qaramasdan iqtisodiy jihatdan to'liq mustaqil bo'lib, o'z

²⁴ O'zbekiston respublikasi bank tizimini islox qilish va erkinlashtirish bo'yicha qonunchilik xujjatlari to'plami . T. : O'zbekiston , 2003 yil 325-bet.

xarajatlarini o'z daromadlaridan qoplaydilar. SHu sababli, bozor iqtisodiyoti sharoitda kredit va uning muhim elementlaridan biri kreditga layoqatlilikni baholashning o'zni va roli muhim ahamiyat kasb etadi. CHunki banklar ham bozor munosabatlarining mustaqil sub'ektlaridan bo'lib, iqtisodiy jihatdan faoliyat natijalari uchun o'zlari javobgar hisoblanadilar.

“O'zsanoatqurilishbank” OATB tomonidan qarz oluvchilarni kreditga layoqatlilik ko'rsatkichlarini ikki tomonlama ko'rib chiqish mumkin:

- qarz oluvchi nuqtai nazaridan kreditga layoqatlilik;
- kredit shartnomasini tuzish imkoniyati, olingan kreditlarni o'z vaqtida qaytara olish qobiliyatini ifodalasa;
- bank nuqtai nazaridan - korxonaga beriladigan kreditning hajmini to'g'ri aniqlay olish mas'uliyatini bildiradi.

“O'zsanoatqurilishbank” OATB orqali qarz oluvchining kreditga layoqatliligini baholash ma'lum bir andozaga tushirilgan moliyaviy koeffisientlardan foydalanganlar. Ularga:

- qoplash koeffisienti;
- likvidlilik koeffisienti;
- mustaqillik(muxtoriylik) koeffisienti, ya'ni o'z mablag'lari bilan ta'minlanish koeffisienti kiradi.

Qarz oluvchi balansi va boshqa moliyaviy hujjatlarga asosan kreditga layoqatlilik ko'rsatkichlari aniqlangan.

Likvidlilik koeffisienti (Kl) 1.5 koefisientni tashkil qilgan.

Qoplash koeffisienti (Qp)1 ga teng bo'lgan.

Moliyaviy mustaqillik yoki muxtorlik koeffisienti (Km) 30%ni tashkil etgan.

Kreditga layoqatlilikning kreditlar bo'yicha ta'minganlik talab qilinib garof va kafilliklar olingan.

Mijozning moliyaviy holatini yanada chuqurroq tahlil qilish uchun quyidagi ko'rsatkichlardan ham foydalangan .

O'z mablag'larini salmog'i 59%ni tashkil qilgan.

Kreditga layoqatlilik ko'rsatkichlariga qarab mijozlarni sinflarga ajratilgan

№	Ko'rsatkichlar	I sinf	II sinf	III sinf
1.	Qoplash koeffisienti (Kq)	$Kq > 2,0$	$2,0 > Kq > 1,0$	$1,0 > Kq$
2.	Likvidlilik koeffisienti (Kl)	$Kl > 1,5$	$1,5 > Kl > 1,0$	$1,0 > Kl$
3.	Muxtorlik koeffisienti (Km)	$Km > 60\%$	$60\% > Km > 30\%$	$30\% > Km$

Mijozning kreditga layoqatliligini baholash va kredit riskini minimallashtirish maqsadida 5 "S" nomini olgan usuldan foydalaniladi. Bu usul asosida mijoz faoliyatini baholashning quyidagi mezonlari yotadi.

- customer character - mijozning obrusi;
- capacity to pay - to'lovga layoqatliligi;
- capital - kapital;
- collateral - ssudaning ta'minlanishi;
- current business conditions and goodwill - iqtisodiy holati va uning kelajagi.

Bu usul bo'yicha mijozning obro'si, mas'uliyat darajasi, qarzni to'lashga bo'lgan istagi va tayyorgarligi tekshirilgan.

Bankning respublikani rivojlantirish bo'yicha yirik iqtisodiy va ijtimoiy dasturlarni kreditlash va moliyalashtirishda ishtirok etishi "Qo'ng'iroq soda zavodi", To'bategin kaliyli o'g'itlar koni bazasidagi "Dehqonobod kaliyli o'g'itlar zavodi", siquvchi kompressor stansiyalari qurilishi bilan Pamuk va Dengizko'l konlarini ishga tushirilishi, G'uzor-Surxon yuqori kuchlanishli liniyasining qurilishi, Navoiy IES, "Buxoro ES" OAJ, "Sirdaryo ES" OAJ, "Navoiy RES" OAJ, "Toshkent ES"larda PGU qurilishi kabi o'ziga xos va muhim ob'ektlarni qurish, modernizasiya qilish va zamonaviy jihozlar bilan jihozlashga ko'maklashadi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sektoriga xorijiy investisiyalarni faol tarzda jalb qilish hisobiga hisobot yilida “O`zsanoatqurilishbank” tomonidan bir qator loyihalar, jumladan, IKRCHS Global moliyalashtirish liniyasi bo`yicha va nemis banklarining kredit liniyalari hisobiga moliyalashtirildi

“O`zsanoatqurilishbank” OATB ko`magida amalga oshirilgan kichik biznesning eng istiqbolli loyihalari sirasiga Andijon va Namangan viloyatlarida avtomobillarga yog`ilgi va gaz qo`yish bo`yicha zamonaviy stansiyalarni tashkillashtirish, Toshkent shahrida yuk tashish xizmatlarini ko`rsatish, Xorazm viloyatida tovuq go`shti va tuxum ishlab chiqarishni kengaytirish, Buxoro viloyatida gilam mahsulotlari va Toshkent shahrida poliestar iplarini ishlab chiqarishni kengaytirish, Toshkent shahrida mebellar va yog`och mahsulotlari ishlab chiqarishni tashkillashtirish bo`yicha bir qator loyihalarni kiritish mumkin.

Kichik biznes sub`ektlari investisiya loyihalarini amalga oshirilishi tufayli bankning bevosita ko`magida Respublika korxonalari zamonaviy texnologik jihozlarni oldilar, yangi ish o`rinlari yaratildi.

Xorijiy banklarning kredit liniyalarini o`zlashtirish bo`yicha davlat Investisiya dasturining bashorat ko`rsatkichlari to`laligicha bajarildi.

O`zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning iqtisodiyotni real sektorida investisiya jarayonlarini faollashtirishda tijorat banklari ishtirokini kuchaytirishga yo`naltirilgan topshiriqlari va dasturiy ko`rsatmalari ijrosini ta`minlash maqsadida, “O`zsanoatqurilishbank” OATB tomonidan hisobot yilida milliy va xorijiy valyutada iqtisodiyotning real sektori korxonalari loyixalarini moliyalashtirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo`llab-quvvatlash sohasidagi faol ishlar davom ettirildi. Bunda raqobatbardosh, import o`rnini bosuvchi va eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarishni, shuningdek O`zbekiston iqtisodiyotining ustuvor tarmoqlarida ishlab chiqarishni modernizasiyalash, texnik va texnologik qayta jihozlashni ko`zda tutuvchi investisiya loyixalariga e`tibor kuchaytirildi.

2011 yil yakunlari “O`zsanoatqurilishbank” OATBni yana bir bor iqtisodiyotni real sektori korxonalarini ishonchli hamkori ekanligini isbotladi.

Bank kredit portfeli tarkibidagi investisiya maqsadlariga yo`naltirilgan kreditlar ulushi 1618,03 mlrd.so`mga etdi.

Moliyalashtirilgan kreditlar ichida chet el banklari, xalqaro moliyaviy muassasalar va O`zbekiston Respublikasining Tiklanish va Taraqqiyot jamg`armasi mablag`larini qayta moliyalashtirish sifatida berilgan xorijiy valyutadagi kreditlar salmoqli ulushga egadir. 2012 yil 1 yanvar xolatiga xorijiy valyutadagi kredit qo`yilmalari 2011 yil mobaynida hisobot yili boshidagiga nisbatan 51%ga o`sib, 836,32 mln.AQSH doll.ga etdi.

Xorijiy valyutada ajratilgan kreditlarning 96 foizi yoki 799,12 mln.AQSH doll. miqdoridagi qismi investisiya maqsadlariga yo`naltirilgan bo`lib, avvalgi yilga nisbatan 49%ga o`sdi.

O`zbekiston Respublikasi Investisiyalar dasturining ijrosini ta`minlash borasida 2011 yilda bank tomonidan “O`zbekneftgaz” MXK, “O`zbekenergo” DAK, “O`zkimyosanoat” DAKning mamlakat uchun iqtisodiy va ijtimoiy ahamiyatga ega bo`lgan strategik investisiyaviy loyixalarini moliyalashtirish davom ettirildi.

Moliyalashtirishda 2011 yilda bank ishtirok etgan muhim loyihalarga quyidagilar kiradi: “Dehqonobod kaliyli o`g`itlar zavodida ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish, “O`zkimyosanoat” DAK”, “Angren ochiq konini texnik jihatdan qayta jihozlashni hisobga olgan holda YAngi Angren IESni yil davomida ko`mir yoqishga o`tkazish, “O`zbekenergo” DAK”, “Sirdaryo va Tolimarjon IES ga detander-generatorlarini o`rnatish”, “370-400 MVt quvvatli bug`-gazli qurilma blokining qurilishi bilan Navoiy IESning kengaytirish, “O`zbekenergo” DAK, “Janubiy Kemachi” konini jihozlash, “O`zbekneftegaz” MXK, “SHo`rtanneftegaz” USHKda propan-butan aralashmasini olish qurilmasining qurilishi” (5-navbat), “Surgil konini jihozlash bilan kon asosida Ustyurt GXKning qurilishi, “O`zbekneftegaz” MXK”.

Umuman olganda, 2011 yilda Bank tomonidan sanoatning ustuvor sohalariga oid strategik investisiya loyixalarini moliyalashtirish uchun xorijiy valyutada 426,92 mln.AQSH doll. xajmida mablag`lar ajratilib, ulardan 281,78 mln. AQSH

dollari – O'zbekiston Respublikasi Tiklanish va Taraqqiyot jamg'armasining, 145,14 mln.AQSH doll. – Xitoy banklarining kredit liniyalari xisobiga moliyalashtirildi.

SHuni aloxida ta'kidlash joizki, qayta moliyalashtirilayotgan Xitoy banklari mablag'lari, O'zbekiston Respublikasi va SHanxay Hamkorlik Tashkiloti o'rtasida tuzilgan Hukumatlararo kelishuv doirasida jalb qilinmoqda. "O'zsanoatqurilishbank" OATB Xitoy Xalq Respublikasi Hukumatining imtiyozli kredit liniyasini qayta moliyalashtirilishida etakchi bo'g'in hisoblanadi.

"O'zsanoatqurilishbank" OATB shuningdek, Hukumatimiz tomonidan O'zbekiston Respublikasi Tiklanish va Taraqqiyot jamg'armasi mablag'larini qayta moliyalashtiruvchi yirik bank sifatida tanlab olingan. So'nggi yillar davomida O'zbekiston Respublikasi Tiklanish va Taraqqiyot jamg'armasining iqtisodiyotni real sektoriga va qayta moliyalashtiruvchi yirik bank sifatida, "O'zsanoatqurilishbank" OATBga qo'yilmalari yuqori o'sish sur'atlarini saqlab qolgan xolda, har yili eng kamida 30%ga ortmoqda.

Bundan tashqari Samarqand, Surxondaryo, Xorazm va Navoiy viloyatlarida turizm sohasini rivojlantirish va turistik xizmatlarining eksport salohiyatini o'rttirish uchun hisobot yilida mehmonxona va restoranlar qurilishi ishlarini olib boruvchi pudratchi tashkilotlarga kredit yordami ko'rsatildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 18 noyabrdagi «Iqtisodiyot real sektori korxonalarining moliyaviy barqarorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida» PF-4053-sonli Farmoni hamda 2008 yil 19 noyabrdagi «Iqtisodiy nochor korxonalarni tijorat banklari bilan sotish tartibini tasdiqlash to'g'risida» F-4010-sonli Farmoyishi qabul qilindi. Bunday mexanizm bankrot korxonalarda ishlab chiqarish faoliyatini qayta tiklash, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilash uchun banklar tomonidan qo'shimcha investisiya kiritish, ana shunday korxonalarni moliyaviy sog'lomlashtirish, yangi turdagi mahsulotlar ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish va zamonaviy boshqaruv usullarini tatbiq etish, shuningdek, ish o'rinlarini qayta tiklash va yangi ish o'rinlarini yaratishni ko'zda tutadi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009 yil 28 iyuldagi «Tijorat banklarining investisiya loyihalarini moliyalashtirish- ga yo'naltiriladigan uzok muddatli kreditlari ulushini ko'paytirishni rag'batlantirish borasidagi qo'shimcha chora- tadbirlar to'g'risida» PQ-1166-sonli Qaroriga asosan tijorat banklari tomonidan, jumladan, ishlab chiqarishni tashkil etish va yo'lga qo'yish hamda mahsulotlarni sotishda muvaffaqiyatli ish tajribasiga ega boshqa investorlar ish- tirokida yangi tashkil etilgan korxonalarga nisbatan ham qo'llanilishi belgilandi.

Bankrot korxonalarni tiklash jarayonini rag'batlantirish maqsadida kiritilgan yangi soliq imtiyozlari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 6 apreldagi «Bank tizimining moliyaviy barqarorligini yanada oshirish va uning investision faolligini kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida» PQ-1317-sonli Qarorida ham o'z aksini topdi.

“O'zsanoatqurilishbank” OATB 2012 yil 1 yanvar xolatiga faoliyatining muhim yo'nalishi sifatida o'zining balansiga berilgan iqtisodiy nochor korxonalarni qayta tiklashga yangi yondashuv bo'ldi. Yo'lga qo'yilgan mexanizm bunday korxonalardagi ishlab chiqarishni modernizasiya qilish, texnik va texnologik jihatdan yangilash, ushbu korxonalarni moliyaviy sog'lomlashtirishga qo'shimcha sarmoyalar kiritishni ko'zda tutadi. Raqobatbardosh mahsulotlarning yangi turlarini chiqarishni yo'lga qo'yish va boshqaruvning zamonaviy usullarini qo'llash yangi ish o'rinlarini yaratishga ko'maklashadi. Yangilangan korxonalar asosida raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishni tashkillashtirish ularni xorijiy strategik investorlar uchun jozibador qiladi.

“O'zsanoatqurilishbank” OATB o'z balansiga respublikaning turli mintaqalaridagi 15 ta bankrot korxonalarni qabul qildi. Jumladan, “Baliqchiteks”, “Uz Bottlers Group” qo'shma korxonalari, “Baliqchitekstil”, “Kuvasoyni chinnisi”, “Tuyamuyunsuvqurilish” ochiq aksiyadorlik jamiyatlari, “Xo'jayli tekstil”, “Xazorasp gilami”, “Xorazm bog'ot qurilish” mas'uliyati cheklangan jamiyatlari, “Tuyamo'yung'isht”, “Tuyamo'yin materiallari ta'minoti tobe jamiyati” sho'ba korxonalari va boshqalar. Korxonalarning ishlab chiqarish yo'nalishlari turlicha –

to'qimachilik, gilamchilik, qurilish materiallari va boshqa sohalar. Ular asosida ishlab chiqarish yo'nalishini aniq belgilagan holda 8 ta yangi korxona yaratildi.

Bank balansiga qabul qilingan korxonalarni texnik va texnologik jihozlash uchun yangi "PSB Industrial Investments" MCHJ boshqaruv investisiya kompaniyasi yaratildi va ushbu korxonalar uning ishonchli boshqaruviga berildi.

Iqtisodiy nochor korxonalarni bank balansiga qabul qilingan vaqtdan boshlab bank tomonidan ularni moliyaviy sog'lomlashtirish bo'yicha bir qator tadbirlar amalga oshirildi. Rejalashtirilgan 51,8 mlrd. so'm o'rniga hisobot yilining oxirigacha ushbu ishlab chiqarishlarga 54,5 mlrd. so'm miqdoridagi mablag' sarmoya qilindi. Moliyaviy kiritmalar tufayli korxonalarning navbatdagi to'lovlar va ish haqi bo'yicha qarzlari so'ndirildi, ishlab chiqarish uchastkalari zamonaviy jihozlar va texnologik liniyalar bilan jihozlandi. Iqtisodiy nochor korxonalarni qayta tiklashda "O'zsanoatqurilishbank" OATBning ishtirok etishi ish o'rinlarini saqlab qolish va qo'shimcha 1130 ta ish o'ri yaratish imkoniyatini berdi.

Bankrot korxonalar mulklari asosida yaratilgan korxonalarda 37,1 mlrd. so'mdan ortiq summadagi mahsulotlar ishlab chiqarildi va xizmatlar ko'rsatildi. 8,0 mln. AQSH dollaridan ortiq summadagi mahsulotlar eksport qilindi (Rossiya va Xitoyga).

Bank balansiga qabul qilingan bankrot korxonalarning ishlab chiqarish faoliyatlarini birgalikda qayta tiklash uchun strategik hamkorlarni, jumladan xorijiy hamkorlarni keyinchalik ularga korxonalarni bozor narxlarida sotish maqsadida jalb qilish bo'yicha bir qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Hozirgi vaqtda bank tomonidan ajratilgan sarmoyalar hisobiga 10 ta bankrot korxonalar mulklari asosida yaratilgan 5 ta korxona qaytadan tiklandi. Ulardan 4 ta korxona strategik investorlarga sotildi, jumladan:

- "PSB-Anteks Group" MCHJ
- "Hazorasp Roof" MCHJ
- «Khorezm bricks» MCHJ
- "Khorezm Global Consruction" MCHJ .

Bankrot korxonalarni tiklash borasida bank tizimi tomonidan amalga oshirilgan ishlar mamlakat rahbariyati tomonidan munosib baholanmoqda. Bu borada mamlakat Prezidentining quyidagi soʻzlarini keltirish kifoyadir: «Toʻlanmay qolgan qarzlari tufayli banklarning balansiga oʻtkazilgan bankrot korxonalarni moliyaviy sogʻlomlashtirish borasidagi tijorat banklarining faoliyati yuksak baholashga molikdir.

Bunday yondashuv kelgusida ham banklarning balansiga oʻtkazilgan bankrot korxonalarni qayta tiklash ishlarida eng muhim yoʻnalish boʻlib qolishi zarur».


2.3. Investisiyalarni samaradorligini aniqlashdagi muammolar

Har yili ishlab chiqiladigan investisiya dasturlarida iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlariga investisiyalar jalb etilishini hamda moliyalashning noanʼanaviy shakllari izlab topilishini ragʻbatlantirishga doir chora-tadbirlarni yanada chuqurlashtirish vazifasi qoʻyilmoqda. Mustaqillik yillarida Oʻzbekistonga katta hajmdagi xorijiy investisiyalar jalb etildi. Bunday sharoitda iqtisodiyotni tarkiban qayta qurish maqsadida xorijiy investisiyalardan oqilona va samarali foydalanish hal etuvchi omil boʻlib qoladi. SHu munosabat bilan, xorijiy investisiyalardan samarali foydalanish vazifasi moliyalovchi banklar zimmasiga tushadi. Oʻzbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki ham shunday banklardandir. Loyihalarni moliyalash ham bu bankning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

1993-2000 yillar davomida banklar xorijiy kredit yoʻnalishlari, davlat byudjetidan ajratilgan va oʻz resurslari, shuningdek byudjetdan tashqari fondlar mablagʻlari hisobidan qariyb 300 investisiya loyihasini moliyaladi. Umumiy kredit ehtiyoji 4,0 mlrd. AQSH dollarini tashkil etadigan bu loyihalar yillar boʻyicha quyidagicha taqsimlandi.

Oʻzbekiston Respublikasi banki tomonidan investisiya loyihalarini moliyalash uchun yoʻnaltirilgan kredit resurslari taqsimotini quyidagi 6-rasmda koʻrishimiz mumkin.

2-Rasm. O'zbekiston Respublikasi banki yo'nalishi bo'yicha moliyalanadigan investisiya loyihalari uchun taqsimlangan kredit resurslari (yakunlarga nisbatan foizlarda)²⁵



2012 yilda iqtisodiyotning real sektoriga yo'naltirilgan kreditlar hajmi 2011 yilga nisbatan 1,3 barobar oshdi. Ajratilgan kreditlarning 76 foizdan ziyodi uch yildan ortiq muddatga berilgan uzoq muddatli kreditlar ekani, ayniqsa, e'tiborga molik.

O'tgan yilda iqtisodiyotimizga 11 milliard 700 million dollar miqdorida ichki va xorijiy investisiyalar jalb etildi yoki bu boradagi ko'rsatkich 2011 yilga nisbatan 14 foizga o'sdi. Jami investisiyalarning 22 foizdan yoki 2 milliard 500 million dollardan ortig'ini xorijiy investisiyalar tashkil etdi, ularning 79 foizdan ko'prog'i to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investisiyalardir.

E'tiborga sazovor tomoni shuki, jami investisiyalarning qariyb 74 foizi ishlab chiqarishni modernizasiya qilish va yangilashga qaratilgan dastur va loyihalarni amalga oshirishga yo'naltirildi.

²⁵ Rasm O'zbekiston Respublikasi banklari, "Yillik hisobot", 2011 y., 45-bet. ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Shu borada faqat o'tgan yilning o'zida umumiy qiymati 1 milliard 600 million dollardan ortiq bo'lgan kapital qo'yilmalar o'zlashtirilib, 205 ta yirik investisiya ob'ekti qurib bitkazildi²⁶.

Tijorat bankining kredit siyosati kredit operasialari sohasidagi strategiya va taktikada o'z ifodasini topishi tufayli, ta'sir ko'rsatuvchi barcha omillarni hisobga olgan holda mavjud risklar tizimi, qarz oluvchining investision kredit qobiliyatini baholash kabi jihatlar puxta o'ylab ko'rilishi ob'ektiv zarurat bo'lib qoladi.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, qarz oluvchining kredit qobiliyati bilan korxonaning investision kredit qobiliyati bir narsa emas. Bu tushunchalar turli texnologiyalar, oddiy kredit bitimi tuzish hamda taqdim etilgan loyiha biznes-rejasi tahlili asosida investision kredit ajratish singari bir-biridan juda farq qiladi. Qarz oluvchi korxonaning kredit qobiliyati deganda qarz oluvchi o'zining kredit bo'yicha qarzini qaytara olishi imkoniyati tushunilishi kerak. Konkret korxonaning to'lov qobiliyati uning barcha qarzlarni o'z vaqtida qaytarish qobiliyatini emas, balki shunday imkoniyati borligini bildiradi. Kredit qobiliyati ancha tor tushuncha bo'lib, tijorat banklari uni o'z amaliy faoliyatida hisobga olishlari lozim.

Agar korxona oddiy qarzni, qoida tariqasida, mahsulot sotishdan olingan tushum hisobidan qaytarsa, kredit bo'yicha qarzni qaytarish manbai uchta. Bular – tijorat banki garov sifatida qabul qilgan mulkni sotishdan olingan tushum; boshqa bank yoki korxonaning qo'shimcha kafolatlari; sug'urta kompaniyasi to'laydigan sug'urta qoplamasi.

Qarz oluvchi korxonaning kredit qobiliyati baholanayotganda bir qancha usullar qo'llaniladi. Lekin ularning hech biri kamchiliklardan holi emas. Ular orasida eng keng tarqalganlari uchta; birinchisi – moliyaviy koeffisientlar tizimiga asoslangan usul bo'lib, u foydalilik va moliyaviy barqarorlik darajasini baholash imkonini beradi; ikkinchisi – pul oqimlarini tahlil qilish imkonini beradigan usul bo'lib, buning uchun sof diskontlangan daromad (NPV), daromadlilik ichki me'yori (IRR), foydalilik indeksi (PI) kabi va boshqa ko'rsatkichlar hisoblab chiqiladi. Bu ko'rsatkichlarning hammasi investisiya loyihasi samaradorligini

²⁶ Karimov I.A.

aniqlash qanchalik mumkinligini bildiradi; uchinchi usul amaliy riskni tahlil qilishga asaslangan.

Pul oqimlarini tahlil qilish usuli qo'llanilganda muayyan davrdagi (chorak, yarim yil, yil) turli pul tushumlari va chiqimlarining sof salbdosi aniqlanadi. Bunda umumiy pul oqimi hajmi mablag'lar kirimi va chiqimi orasidagi tafovut sifatida belgilanadi. Agar uzoq vaqt (odatda 3-5 yil) davomida barqaror ravishda daromadlar xarajatlardan ko'p bo'lib kelgan bo'lsa, bu holat mijozning moliyaviy barqarorligi va kreditni qaytara olishidan dalolat beradi. Bunday holat faqat oborot mablag'larini to'ldirishga yoki boshqa joriy xarajatlarga kredit beriladigan hollarda to'g'ri bo'ladi.

Shunday qilib, mazkur usul faqat korxona ishlab turishini ta'minlash maqsadida kredit berishga mo'ljallangan. Zero, investisiya kreditlari berilayotganda investisiyalanayotgan mablag'lar sarflanishi bilan buning natijasida daromadlar ko'payishi orasida ancha vaqt o'tishi mumkin. Ayni paytda bu usulda yuqorida ko'rsatilgan risklar tizimi hisobga olinmaydi.

Nihoyat, amaliy xatar usuli aylanma mablag'lari aylanishi uzluksiz emasligi, bu aylanish samarali tugallanmay qolishi mumkinligi bilan bog'liqdir. Xatar tahlil qilinishi kreditlarni qaytarish manbalari qanchalik etarliligini oldindan chamalash imkonini beradi. Bu usulda quyidagi xatar omillari hisobga olinadi: etkazib beruvchilar ishonchliligi, etkazib berish mavsumiyligi, xom ashyo va materiallar sotib olish tartibi, import xom ashyo hamda materiallarni olib ketish va olib kelish borasida cheklashlar joriy etilishi xatari.

Demak, qarz oluvchi korxonalar kredit qobiliyatini baholashning biz ko'rib chiqqan usullari korxonalarning uzoq muddatli investisiya kreditlarini qaytarish imkoniyatini tahlil qilish uchun yaramaydi. Biz ko'rib chiqqan hamma usullarda yuqorida aytilgan real mavjud xatarlar hisobga olinmaydi va ular joriy ahvoli tahlil qilishga yoki muayyan davr uchun baho berishga mo'ljallangan.

Investisiya krediti beriladigan hollarda korxonaning kelajakdagi ahvoli qanday bo'lishini chamalay olish, ya'ni investisiya loyihasi amalga oshirilayotganda uning moliyaviy ahvoli dinamikasi qanday bo'lishini hisobga olish zarurdir. SHunday

ekan, korxonaning investisiya kreditlarini o'z vaqtida qaytarish imkoniyatini baholash uchun tamomila yangicha yondashuvlar kerak bo'ladi.

Investision kredit qobiliyati korxonaning keng ma'noda tushuniladigan aylanma mablag'larini samarali va oqilona boshqarish qobiliyatidan tashqari, bir qancha real shartlar bajarilishini ham taqozo etadi. Ular qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin:

- birinchidan, investisiya loyihasi amalga oshirilganidan keyin muayyan vaqt mobaynidagi ishonchlilik va barqarorlik. Bular kredit qaytarilishiga yordam beradi;

- ikkinchidan, qarz oluvchining investisiya loyihasini muvaffaqiyatli amalga oshirish va kutilgan natijaga erishish qobiliyati. Bu, kreditni qaytarish mablag'lari sifatida foydalaniladigan yangi daromadlarni qo'lga kiritish imkonini beradi;

- uchinchidan, investisiya krediti bergan tijorat banki ham, qarz oluvchi korxona ham investisiya risklarining hammasini (ichki va tashqi risklarni) real hisobga olishi.

Shunga tayanib xulosa chiqarish mumkinki, sifatli investisiya loyihasi hamda uni amalga oshirish biznes-rejasi berilayotgan investisiya kreditlari ta'minotining eng ishonchli turi bo'la oladi. Biroq, hozirgi vaqtda ko'pgina tijorat banklari ularda loyihalarni tahlil qila oladigan malakali xodimlar etishmasligi sababli bu hujjatlarga uncha katta e'tibor berishmayapti.

Investisiya loyihasi va uning biznes-rejasi korxonaning real ahvolini barcha mavjud xatarlari bilan birga juda to'g'ri ko'rsatadi. Bunda olingan tasavvur o'sha investisiya loyihasi hamda uning biznes-rejasi orqali erishilishi kerak bo'lgan biznesning kelajakdagi holatidan ko'ra aniqroq bo'ladi. Boshqacha qilib aytganda, agar yuqorida aytilgan hujjatlar tahlil qilish uddalansa, juda ko'p narsalarni bilib olish mumkin. Biroq, investisiya loyihalarini kreditlash usullari amaliyotga keng joriy etilishi uchun ikkita katta muammo hal etilishi lozim.

Birinchi muammo O'zbekiston sanoat korxonalarini boshqarish tizimini isloh etish bilan bog'liq. Boshqaruv tizimini menejment prinsiplari asosida bunday isloh etish mavjud ichki risklar ancha kamaytirilishida va ular biznes-reja loyihalari

ishlab chiqilayotganda korxonalar mutaxassisleri tomonidan to'g'ri hisobga olinishida yordam beradi.

Ikkinchi muammo tijorat banklari faoliyati bilan bog'liq. YA'ni bunda gap boshqaruv sifatini oshirish zarurati haqida borayapti. Zero, boshqaruv korxonalarga investisiya kreditlari berishning samarali mexanizmi yaratilishi va ishlashini ta'minlashi lozim. Tijorat banklari faoliyatida shunday mexanizm joriy etilishi investisiya kreditlari berilayotganda noto'g'ri qarorlar qabul qilinishi riskini kamaytirish imkonini bergan bo'lur edi.

Ana shu ikki muhim muammo bir yo'la hal etilishi tijorat banklari tomonidan sanoat korxonalariga investisiya kreditlari berilishini odatiy holga aylantirgan bo'lardi. Bu esa, o'z navbatida, mamlakatimiz eksport salohiyatini kengaytirishda va mehnat resurslarini ish bilan ta'minlashda yordam beradi.

3-BOB. IQTISODIYOTNI MODERNIZASIYALASH SHAROITIDA INVESTISIYALAR INVESTISIYALAR SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO`LLARI

3.1. Investisiyalarni samaradorligini oshirishdagi muammolarni bartaraf etish yo`llari

Investision loyixalar o`z samarasini bergandagina ko`zlangan samarani beradi. Lekin ko`zlangan samarani berish uchun uning samaradorlik ko`rsatkichlari va ularning hisoblash usullarini bilish va bu natija bo`yicha tegishli investision qarorlar qabul qilish maqsadga muvofiqdir.

Investisiya loyihalarini moliyalashtiruvchi tijorat banklari uchun yanada kattaroq xavf mavjud. Bunda gap faqat tijorat nuqtai nazaridan istiqbolsiz loyiha uchun uzoq muddatli kredit berib yuborilishi mumkinligida emas. SHunday ekan, tijorat banklarining xodimlari taqdim etilgan biznes-rejani o`z vaqtida va sifatli tahlil qilishni o`rganishlari muhimdir.

O`zbekiston Respublikasi bank tizimi bu sohada to`plagan tajribani tahlil qilish natijalari shuni ko`rsatmoqdaki, korxonalar va tijorat banklarining xodimlari o`zlari biznes-rajani to`g`ri tuzishni o`rgansalargina ularga taqdim etilgan bunday hujjatlarni to`g`ri tahlil qila oladilar. CHunki xozirgi kunda taqdim etilgan biznes rejani ekspert qiluvchi infratuzilma shaklanmaganligi va uning tuzgan raxbar va ma'sul xodimlarga javobgarlikni qonuniy belgilanmaganligi bunga yaqqol misoldir. Investision kreditlashga aloqasi bor tijorat banklarining barcha mutaxassislari investisiya loyihalarining biznes-rejasini tuzishga ham, kamchiliklarni aniqlash maqsadida uni tahlil qilishga ham o`rgatilishlari lozim.

Hatto sifatli biznes-reja taqdim etilgan hollarda ham, tijorat banklari xodimlari investision kreditlashning korxona moliyaviy ahvolini tadqiq etish bilan bog`liq quyidagi bosqichini o`tkazishni o`rganishlari kerak.

Ikkinchidan investisiya loyihasini amalga oshiruvchi korxonaning moliyaviy ahvolini tahlil qilish bilan bog`liq.

Hozirgi kunda bank kreditlovchi bo`linmasining ko`pgina xodimlari bunday tahlilni bajara olmaydilar. Tijorat banklari investisiyalarni kreditlashda shunday tahlil o`tkazishni etarlicha chuqur o`rganib olishlari kerak hamda ularga tegishli

ekspertlik faoliyati bo'yicha sertifikatlar berilish lozim. Aslini olganda, banklar kreditlovchi bo'linmalari xodimlarining aksariyati muhandislik tayyorgarligiga ega emas va ular real ishlab chiqarishni yaxshi tushunmaydilar. SHunday ekan, investision kreditlashni amalga oshirish uchun tijorat banklari ishlab chiqarish sohasini va investisiya loyihalari amalga oshirilishini boshqarish qanday bo'lishini tushunadigan mutaxassislarni jalb etish yo'li bilan bankning tegishli bo'linmalarini mustahkamlashlari zarur..

Uchinchidan sherik kafil korxonalar va banklarning moliyaviy ahvoli tahlil qilinishi lozim. Investision kreditlash bilan shug'ullanuvchi tijorat bankining tashqi risklari korxonaning ahvoligagina emas, shu bilan birga biznes bo'yicha sheriklarga ham bog'liq. Investision kreditlar uzoq muddatga berilishi sababli tijorat banki boshqa banklarni investisiya loyihalarini moliyalashga jalb etayotganda (agar jalb etsa) ehtiyotkorroq bo'lishi kerak. Agar bir nechta bank investisiya loyihasini birgalikda kreditlamoqchi bo'lsa, sheriklarning real imkoniyatlarini aniqlab olish zarur. CHunki, keyingi bosqichlarda loyihani moliyalashda qatnashishdan bosh tortilishi o'z mablag'larini investision kreditga yo'naltirib qo'ygan boshqa banklarda jiddiy muammolarni keltirib chiqarishi mumkin.

To'rtinchidan tijorat banki tomonidan investision kreditlashning strategiyasi va taktikasi ishlab chiqilishini taqozo etadi.

YA'ni tijorat banki konkret investisiya loyihasini moliyalashdagi o'z strategiyasi va taktikasini belgilab olishi kerak. Bank strategiyasi uning uzoq muddatli maqsadlariga asoslanishi, taktikada esa, konkret investisiya loyihasini kreditlash muddati uchun mo'ljallangan bank kredit siyosati hisobga olinishi kerak.

Tijorat banklari tomonidan investisiyalarni samaradorligini aniqlashning xalqaro andozalardan foydalanish yanada ularni jozibadorligini oshiradi Misol uchun OATB "Uzsanoatqurilishbank"ning "PSB Industrial Investments" MCHJ ga berilgan uzoq muddatli kreditlarni taxlil etilgan.

“PSB Industrial Investments” MCHJ si loyixasining pul oqimlari taxlili²⁷

	Ko`rsatkichlar	1 chi yil	2 chi yil	3 chi yil	4 chi yil	5 chi yil
1	Smeta qiymati mlrd	-54,5				
2	Pul oqimi (mlrd)		15	25	25	25
3	Loyixani qoplanish muddati (5 yil)				to`liq ish	
4	Loyixani ichki sof foyda normasi(12%)	12	12	12	12	12
5	Pul oqimni keltirilgan qiymati(mlrd)	0	11,95791	19,92985	19,92985	19,92985
6	Pul oqimini uyishtirilgan qiymati(mlrd)	-54,5	11,96	19,93	19,93	19,93
7	Loyixaning NPV sini toping(mlrd)	-54,5	-42,54	-22,61	-2,68	17,25

Jadvaldan ko`rinib turibdiki, loyixaning qoplanishi 5 chi yil tugab, uning sof joriy qiymati 17.25 mlrd ni tashkil qilmoqda. Chunki bu asosan loyixaning ichki sof foyda normasiga keltirilgan xolda amalga oshiriladi.

“PSB Industrial Investments” MCHJ ning 54,5 mlrd loyixasini
ichki sof foyda normasini o`zgartirgan xolda hisoblangan sof joriy qiymati²⁸

	Ko`rsatkichlar	1 chi yil	2 chi yil	3 chi yil	4 chi yil	5 chi yil
1	Smeta qiymati mlrd	-54,5				
2	Pul oqimi (mlrd)		15	25	25	25
3	Loyixani qoplanish muddati (5 yil)				to`liq ish	
4	Loyixani ichki sof foyda normasi(10%)	10	10	10	10	10
5	Pul oqimni keltirilgan qiymati(mlrd)	0	12,39669	18,78287	17,07534	15,52303
6	Pul oqimini uyishtirilgan qiymati(mlrd)	-54,5	12,39	18,78	17,08	15,52
7	Loyixaning NPV sini toping(mlrd)	-54,5	-42,11	-23,33	-6,25	9,27

Yuqoridagi jadvaldan shu narsa ko`rinmoqdaki, loyixaning qoplanish muddati va uning miqdoriga uning ichki sof foyda normasiga bevosita bog`liq ekan. Shuning uchun loyixalarni investision samaradorligini hisoblatganda mazkur krsatkichga katta e`tibor berish lozim.

²⁷ Muallif tomonidan ishlab chiqildi

²⁸ Muallif tomonidan ishlab chiqildi

**“PSB Industrial Investments” MCHJ ning 54,5 mlrd
loyixasini inflyasiyaga uchragan sof joriy qiymati²⁹**

	Ko'rsatkichlar	1 chi yil	2 chi yil	3 chi yil	4 chi yil	5 chi yil
1	Smeta qiymati mlrd	-54,5				
2	Pul oqimi (mlrd)		15	25	25	25
3	Loyixani qoplanish muddati (5 yil)				to'liq ish	
4	Loyixani ichki sof foyda normasi(12%)	12	12	12	12	12
5	Pul oqimni keltirilgan qiymati(mlrd)	0	11,95791	19,92985	19,92985	19,92985
6	Pul oqimini uyishtirilgan qiymati(mlrd)	-54,5	11,96	19,93	19,93	19,93
7	Loyixaning NPV sini toping(mlrd)	-54,5	-42,54	-22,61	-2,68	17,25
8	JAMI 5 yillik loyixani joriy qiymati(mlrd)					71,74745
9	Inflyasiya sur'atlari	0,07	0,07	0,07	0,07	0,07
10	Inflyasiyaning o'sgan miqdori(marta)					1,402552
11	Inflyasiya xisobiga loyixani PV si(mlrd)					51,15
12	Inflyasiya xisobiga loyixani NPV si (mlrd)					-3,35

Shuning bilan birga yuqoridagi jadvaldan shuni ko'rishimiz mumkinki, loyixaning pul oqimlarini hisobga olayotgan uni inflyasiya darajalariga keltirilishi lozim. Chunki qo'yilgan moliyaviy resurs ma'lum vaqtdan so'ng inflyasiya hisobiga o'z qadrini yo'qotib boradi. Misolimizda loyixa 5 yilda o'zi ko'zlagan natijani bermayapti, ya'ni loyixaning sof joriy qiymati -3.35 mlrd ga teng bo'lmoqda.

Ta'kidlab o'tish lozimki, risklarni kamaytirish maqsadida, konkret loyihani kreditlash risklari tahlil qilinayotganda bu ishda korxona biznes-rejasini tahlil qilish va korxonani tekshirish bilan shug'ullanuvchi bank xodimlari ham qatnashishlari lozim. Zero bu xodimlar mavjud ichki risklar to'g'risida real ma'lumotga egadirlar.

²⁹ Muallif tomonidan ishlab chiqildi

Nihoyat, investision kreditlash ishlarini bajarishning oxirgi beshinchi bosqichida uning huquqiy bazasini belgilab olish zarur.

Investision kreditlash dasturi amalga oshirilishi munosabati bilan, tijorat bankining boshqarish tizimini takomillashtirish masalasiga alohida e'tibor qaratilishi kerak. Sababi, investisiya faoliyati bank tomonidan kreditlanishi mexanizmi muvaffaqiyatli ishlashi uchun bunda tijorat bankini boshqarishning zamonaviy tizimiga tayanish kerak bo'ladi.

Shu munosabat bilan bunday xorijiy investisiyalar to'g'risidagi qonunchilikka, shuningdek chet el investisiyalarini reglamentlovchi xalqaro huquqiy hujjatlarga mos tushadi.

Hozirgi vaqtda investision loyixalarga berilayotgan kredit hisobiga olib kelgan mulkdan soliqqa tortish va bojxona to'lovlari bilan bog'liq muammolar tufayli bu operatsiyalari rivojlanmay turibdi. Chunonchi, QQSni hisoblash va to'lash muammosi bor.

Yana bir muhim muammo – bojxona to'lovlari. Ishlab chiqarishni arzonlashtirish hamda shu asosda mahsulotning xalqaro bozordagi raqobat qobiliyatini oshirish maqsadida imtiyozli bojxona rejimi muddati investision kredit shartnomasi amal qiladigan butun muddatga uzaytirilishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Bundan tashqari, mashina-uskunalar sotib olingan taqdirda bojxona bojlari shu uskunalarining qoldiq qiymatini hisobga olgan holda to'lanishi ko'zda tutilsa, to'g'ri bo'lardi.

Bank operatsiyalariga doir risk sug'urta qilinayotganda kredit kompaniyalari qabul qilishi mumkin bo'lgan kafolat turlari belgilab olinishi muhimdir. Bunday kafolat sifatida quyidagilardan foydalansa bo'ladi: bank kafolati; qimmatli qog'ozlar garovi; oborotdagi yoki mulk ko'rinishidagi likvid tovar; uskuna uni etkazib beruvchi tomonidan qayta sotib olinishi kafolati; lizingga berilayotgan mashina-uskunalar qiymati; moliyaviy ko'rsatkichlari ishonchli bo'lgan chet tashkilotlar kafilligi va boshqalar.

Shuningdek investision loyixalarni pul oqimlarini taxlil etayotganda ya'ni avvalo pul oqimlarini, uning kelgusi qiymati, inflyasiya sharoitida inflyasiyaga

uchragan pulni qiymatini xisoblash maqsadga muvofiqdir. Chunki pulning davriy qiymatini xisoblash vaqti orqali uning qoplanish muddati, loyixaning davriyligi, qoplanish normasi va boshqa ko'rsatkichlar taxlil etiladi.

Agar yuqoridag belgilangan investisiyalarni NFV, NPV, IRR va ID ko'rsatkichlar orqali taxlil etilsa, u xolda qarorlar qabul qilish osonroq kechadi va bank tizimidagi risklarni kamaytirish omsili bo'lib xizmat qiladi.

O'zbekiston banklari sarmoyasini investisiya faoliyatiga jalb etishda, ishlab chiqarishga yangi texnologiyalar joriy etilishini rag'batlantirishda yordam beradi va bu holat mahsulotning jahon bozoridagi raqobatbardoshligi oshishini ta'minlaydi. Byudjet mablag'lari cheklangan, ko'pgina korxonalar sarmoyasi etarli bo'lmagan bir sharoitda lizing ishlab chiqarishni rivojlantirishning, mamlakatdagi investision muhitni yaxshilashning hamda iqtisodiy o'sishni ta'minlashning qudratli omili hisoblanadi

3.2. Investisiyalarni samaradorligini oshirishni takomillashtirishning yo'nalishlari

Tijorat banklari tomonidan investisiya kreditini berishni tashkil etish imkoniyati muhim hisoblanib, bu O'zbekiston tijorat banki moliyalovchi tashkilot vazifasini bajarishda mikro va makrodarajada muammolarga barham beriladi. Ayni paytda investision kredit uchun to'lovlar tijorat banki orqali o'tadi. SHu munosabat bilan investisiyalar to'g'risidagi qonunchilikka, shuningdek chet el investisiyalarini reglamentlovchi xalqaro huquqiy hujjatlarga mos tushadi. Bularning barchasi uning samaradorligini oshirishni takomillashtirishga zarurat tug'diradi.

Uzoq muddatli investision kredit mexanizmini maxsus tartibga solish ham mazkur muammoni hal etish shakllaridan biri bo'lishi mumkin. Chunki investision kredit bitimida O'zbekiston Bank tizimi ham qatnashadi. SHu tufayli mashina-uskunalari bitimi asosida etkazib beriladigan muayyan investisiya loyihasi ustida ham xorijiy, ham milliy tijorat banklar birgalikda ishlaydilar.

Xalqaro tajribani hisobga olib, O'zbekiston investision kredit shartnomasi doirasida kredit mulkini ulardan biriga etkazib berish to'g'risidagi masalani hal etish imkoniyati berilishi maqsadga muvofiqdir.

O`ylaymizki, investision kreditning iqtisodiy va ijtimoiy samarasi investision kredit bitimini amalga oshirishning eng maqbul va oqilona mexanizmini tanlashga bog`liqdir. Iqtisodiy shart-sharoit O`zbekistonda ijtimoiy turmushning barcha sohalarini erkinlashtirish borasida yuritilayotgan siyosat bilan bog`liq. Zero bu siyosatga ko`ra, barcha xo`jalik yurituvchi sub`ektlar bir-birlari bilan, jumladan biznes bo`yicha xorijiy sheriklari bilan o`zaro munosabatlarida muayyan erkinlikka erishishlari lozim.

Yana bir muhim muammo – bojxona to`lovlari. Davlat fiskal siyosat yuritayotgan sharoitda xalqaro lizing bo`yicha keltirilgan mashina-uskunalar yuzasidan bojxona to`lovlari mutlaqo boshqa prinsipga ko`ra hisoblanadi. Bizningcha, ishlab chiqarishni arzonlashtirish hamda shu asosda mahsulotning xalqaro bozordagi raqobat qobiliyatini oshirish maqsadida imtiyozli bojxona rejimi muddati investision kredit shartnomasi amal qiladigan butun muddatga uzaytirilishi maqsadga muvofiq bo`ladi. Bundan tashqari, mashina-uskunalar sotib olingan taqdirda bojxona bojlari shu uskunalarining qoldiq qiymatini hisobga olgan holda to`lanishi ko`zda tutilsa, to`g`ri bo`lardi.

Shunday ekan, chamasi, tegishli huquqiy hujjat chiqarilishi, unda mashina-uskunalar xalqaro investision kredit hisobidan olinadigan istiqbolli investisiya loyihalarini amalga oshirishda qatnashuvchi tijorat banklariga davlat kafolatlari berish shartlari aniq belgilab qo`yilishi kerak.

Investision kredit operatsiyalarini sug`urtalash yana bir muhim masaladir. Investision kredit bitimi moliyalanishini yaxshilash maqsadida ko`proq ishtirokchilarni jalb etish maqsadga muvofiqdir. Bunday qilinishi o`z navbatida moliyaviy risklar ular o`rtasida bo`linishiga olib keladi.

Shu munosabat bilan quyidagilarni kafolatchilar safiga qo`shish maqsadga muvofiq bo`ladi: mashina-uskunalar ishlab chiqaruvchi; investision kredit bitimini moliyalovchi xorijiy bank; kafolatchi bo`lgan O`zbekiston tijorat banki; sug`urta kompaniyasi; davlat kafolati bergan mamlakat hukumati.

Investision kredit operatsiyalariga doir risk sug`urta qilinayotganda tijorat banklar qabul qilishi mumkin bo`lgan kafolat turlari belgilab olinishi muhimdir.

Bunday kafolat sifatida quyidagilardan foydalansa bo`ladi: bank kafolati; qimmatli qog`ozlar garovi; oborotdagi yoki mulk ko`rinishidagi likvid tovar; uskuna uni etkazib beruvchi tomonidan qayta sotib olinishi kafolati; investision kreditga berilayotgan mashina-uskunalar qiymati; moliyaviy ko`rsatkichlari ishonchli bo`lgan chet tashkilotlar kafilligi va boshqalar.

O`zbekiston korxonalari mahsulotlarining raqobatbardoshligi oshirilishini ta`minlaydigan shart-sharoit yaratish zarurati investision kreditlar xisobiga moliyalashning noan`anaviy manbalari topilishini taqozo etadi. SHunday qilinsa, tijorat banklarining resurslarini jamlab, ularni yirik, strategik istiqbolli investisiya loyihalarini amalga oshirishga yo`naltirish mumkin. Sug`urta konsalting kompaniyalari barpo etish yo`li bilan investision kredit bozori infratuzilmasini shakllantirish va rivojlantirish ham zarur.

Iqtisodiy o`rishni ta`minlashning eng istiqbolli shakli sifatida lizing faoliyatini rivojlantirish maqsadida investision kredit beruvchilar va ayniqsa investision kredit oluvchilarga nisbatan turli soliq imtiyozlari qo`llanilishi kerak. Soliqlar orqali rag`batlantirish to`g`risida qarorlar qabul qilinayotganda moliyaviy, qaytariladigan, chunki ular investisiyalash tushunchasiga eng ko`p darajada mos keladi.

Investision kredit sohasida turli soliq imtiyozlari qo`llanilishi mazkur operatsiyalarini rivojlantirish imkonini beradi. Natijada chet eldan zamonaviy mashina-uskunalar va yangi texnologiyalar keltirish uchun real shart-sharoit yaratiladi. Bu esa, O`zbekiston Respublikasiga xorijiy investisiyalarni jalb etishning yana bir shakli bo`ladi.

Investision kredit rivojlantirilishi korxonalarni restrukturizatsiyalash va eskirib qolgan mashina-uskunalarni o`z vaqtida yangilashda, O`zbekiston banklari sarmoyasini investisiya faoliyatiga jalb etishda, ishlab chiqarishga yangi texnologiyalar joriy etilishini rag`batlantirishda yordam beradi va bu holat mahsulotning jahon bozoridagi raqobatbardoshligi oshishini ta`minlaydi. Byudjet mablag`lari cheklangan, ko`pgina korxonalar sarmoyasi etarli bo`lmagan bir sharoitda investision kredit ishlab chiqarishni rivojlantirishning, mamlakatdagi

investision muhitni yaxshilashning hamda iqtisodiy o`lishni ta'minlashning qudratli omili hisoblanadi

Xulosa va takliflar

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida investisiyalarni samarasi undan kelayotgan iqtisodiy va ijtimoiy, intellektual natijalarini belgilovchi ko'rsatkichlar bilan baholanadi. Bunda investisiyalashning asosiy manbasi hisoblangan tijoat banklarining uzoq muddatli kreditlarini, ularni investisiyalashdagi samaradorlik ko'rsatkichlarini oshirishga olib boruvchi ilmiy va amaliy ahamiyatga ega bo'lgan xulosa va takliflar ishlab chiqildi.

Tijorat banklarining holati mamlakatdagi ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatga bog'liq. Shu bilan birga bank tizimi iqtisodiyotning poydevoridir. Shuning uchun iqtisodiyotni sog'lomlashtirish birinchi navbatda bank tizimi ahvolidagi o'z aksini topadi, bu esa o'z navbatida jamiyatda ijobiy o'zgarishlar katalizatoriga aylanishi mumkin.

Iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish, ijtimoiy turmushning barcha tomonlarini erkinlashtirish jarayonini rivojlantirish sharoitida institusional investorlar tizimi vujudga kelishi kerak. Bunda tijorat banklari bosh o'rinni egallaydi. Bu esa tijorat banklari investisiya faoliyatini jonlantirmay turib investisiya tanazzulini bartaraf etishga umid qilish mumkin emasligidan dalolat beradi.

Bunda tijorat banklari tomonidan investision loyixalarni iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlarini oshirishga qaratilib, bunda tijorat banklarining investisiyalash jarayonidagi muammolar va bartaraf etish yo'llari ishlab chiqildi. Bunda mamlakatimizdagi tijorat banklarini investision loyixalarini samarasini oshirish bo'yicha quyidagi takliflar ishlab chiqildi. Tijorat banklari faoliyatidagi kamchiliklar quyidagilardan iborat:

Biznes rejani tegishli ekspert etish infratuzilmasi shakllanmagan;

Biznes reja va garov mulklarni bank xodimlarini ekspert qilish bo'yicha malakasini tayyorlash va tegishli sertifikatlar berish;

Biznes rejani tasdiqlagan ma'sul xodimlarga qonuniy javobgarlikni yuklash;

Kafil korxonalarni moliyaviy xolatini taxlil etish faqat auditor tashkilotlar ma'suliyatini oshirish va ularga ma'lum javobgarliklarni yuklatish;

Agar bir nechta bank investisiya loyahasini birgalikda kreditlamoqchi bo`lsa, sheriklarning real imkoniyatlarini aniqlab olish zarur;

Qo`shimcha ravishda investision kreditlarni berishda uning to`lov laqati va garov mulklarini olishda qo`shimcha ravishda quyidagi ishlarni amalga oshirilishini lozim topdik:

Investision loyixalarni pul oqimlarini bir sanaga keltirilgan xolda samaradorlik ko`rsatkichlari taxlil etilsin;

1)investisiyalarning pul oqimlarini kelgusi qiymatini aniqlash va mos muqobil varinatlar bilan taqqoslash, tegishli qarorlar qbul qilish

2) investisiyalarning pul oqimlarini keltirilgan qiymatini aniqlash va mos muqobil varinatlar bilan taqqoslash, tegishli qarorlar qbul qilish

3)investisiyalarning pul oqimlarini ichki sof foyda normasini aniqlash va mos muqobil varinatlar bilan taqqoslash, tegishli qarorlar qabul qilish

4)investisiyalarning qoplanish muddatlarini aniqlash va mos muqobil varinatlar bilan taqqoslash, tegishli qarorlar qabul qilish

Shuning bilan birga investision loyixalarni pul oqimlarini samaradorligini hisoblayotganda pulni vaqt konsepsiyasidan to`liq foydalangan holda xisob kitob jarayonlarini tashkil etish lozim. Chunki etilgan xarajatlar aniq qiymatga ega bo`lgan qadrli pullar hisoblanadi, keyingi kelgusida kelayotgan pul oqimlari esa ma`lum darajada inflyasiyaga uchrab o`z qadrini yo`qotgan xolda o`z egasiga qaytib keladi. Shuning uchun pul oqimlarini inflyasiyaga uchragan qiymatni hisoblash usullarini kengroq joriy etish lozim.

Bundan tashqari, biznes rejada keltirilgan xisob- kitoblarni amalga oshirish uchun tegishli mutaxassi yoki bank xodimlari, ekspertlarni jalb qilish lozim.

YUqoridagi keltirilgan muammolar bartaraf etilsa, tijorat banklarining investisiyaviy jozibadorlik ko`rsatkichlarini oshirishga erishiladi. Bundan:

-investisiyalarni iqtisodiyotdagi o`rni va uning mamlakat makroiqtisodiy ko`rsatkichlaridagi ulushi ortib boradi;

-tijoat banklarni investision kreditlar hisobiga iqtisodiyotni real sektorini iqtisodiy modernizasiyalash, qayta qurollantirish, ishlab chiqarishni qayta qurish va innovasion ishlab chiqarish jarayoni faol surʼatlarda tus oladi;

-investision loyixalardan keladigan pul oqimlarini xaqiqiy qiymatini bilgan investorlarni qiziqishi ortib boradi;

-investision loyixadan kelayotgan daromadni bank omonatidan keladigan daromad bilan taqqoslash osonlashadi;

-investision loyixalarni investisiyalashda tijorat banklarining uzoq muddatli kreditlarini oʻrni ortadi;

-tijorat banklari tomonidan uzoq muddatli investision kreditlarini daromadliligi bir necha yilga davriy uzoqligi ortadi;

-investision risklarni kamaytirish uchun oldindan prognoz qilish orqali uning kamaytirishga erishiladi;

-mamlakatning iqtisodiy strategik korxonalarini moliyalashtirish uzoq muddatli bank kreditlari, chet ellik investorlar mablagʻlari va korxona mablagʻlariga faollashuvi kuchayib boradi;

-ishlab chiqarishni ortish va daromadlarini koʻpayishi orqali aholining oʻz mexnatiga boʻlgan ijobiy munosabati ortib boradi;

-mamlakatimizdagi investision muxit barqaror surʼatlarda faollashib boradi va uning rivojlanishi kengayib boradi;

Shuning bilan birga tijorat banklari va korxonalar investisiya faoliyatini yuqoridagi belgilangan va ragʻbatlantirishning asosiy yoʻnalishlarini yanada aniqroq belgilash maqsadida alohida toifalar boʻyicha investisiya imtiyozlarini tasniflash maqsadga muvofiqdir. Mahsulotni ishlab chiqaruvchi tarmoqlarni rivojlantirishga koʻmaklashadigan tijorat banklariga investision kreditlarni tashkil etish va uning samaradorligini oshirish usullarini takomillashtirish maqsadga muvofiq.

Tijorat banklarining investisiya faoliyatini ragʻbatlantirish maqsadida islohot bank tizimidan boshlanishi kerak. Bank tizimi barqaror boʻlgan bir paytda

makrodarajada investisiya loyihalarini uzoq muddatli kreditlashda tijorat banklari rolini oshirishga ko`maklashadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati **O'zbekiston Respublikasi Qonunlari**

1. O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki to'g'risida"gi Qonuni, 1995 yil 21 dekabr. O'zbekiston bank tizimini isloh qilish va erkinlashtirish bo'yicha qonunchilik hujjatlari to'plami. T.:-"O'zbekiston" - 2003 yil. 7-29 betlar.

2. O'zbekiston Respublikasining «Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi Qonuni, 1996 yil 25 aprel. O'zbekiston bank tizimini isloh qilish va erkinlashtirish bo'yicha qonunchilik hujjatlari to'plami. T.:-"O'zbekiston" - 2003 yil. 30-47 betlar.

3. O'zbekiston Respublikasining «Investisiya faoliyati to'g'risida»gi Qonuni. // Xalk so'zi, - 1999 yil 12 yanvar, 2 bet.

4. O'zbekiston Respublikasining."Horijdan mablag` jalb qilish to'g'risida"gi Qonuni. // Xalk, so'zi. - 1996 yil, 12 sentyabr, 3 bet.

5. O'zbekiston Respublikasining «Lizing to'g'risida"gi Qonuni. // Xo'jalik va huquq. - 1999 yil. Iyun. 3-9 betlar.

6. O'zbekiston Respublikasining "Erkin iqtisodiy zonalar to'g'risida"gi Qonuni. // Xo'jalik va huquq. Iyun, 1996 yil. 2-7 b.

7. O'zbekiston Respublikasining "CHet el investitsiyalari to'g'risida"gi Qonuni. // Xo'jalik va huquq, - 1998 yil. iyul. 2-9 b.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari va Qarorlari.

2.1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 14.02.2012 yildagi "Angren" maxsus industrial zonasini barpo etish to'g'risida"gi Farmoni.

2.2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 26.11.2010 y. PK-1438-son "2011-2015 yillarda respublika moliya-bank tizimini yanada isloh qilish va barqarorligini oshirish hamda yuqori xalqaro reyting ko'rsatkichlariga erishishning ustuvor yo'nalishlari to'g'risida"gi Qarori.

2.3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 06.04.2010 y. PK-1317-son "Bank tizimining moliyaviy barqarorligini yanada oshirish va investitsiyaviy

faolligini kuchaytirish chora-tadbirlari to'grisida"gi Qarori

2.4. Tijorat banklari depozitlariga axoli va xo'jalik sub'ektlari bo'sh pul mablag'larini jalb etishni yanada rag'batlantirish qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 06.04.2009 y. PK-1090-son Qarori

2.4. Tijorat banklarining investitsiya loyixalarini moliyalashtirishga yo'naltiriladigan uzok muddatli kreditlari ulushini ko'paytirishni ragbatlantirish borasidagi ko'shimcha chora-tadbirlar to'grisida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.07.2009 y. PK-1166-sonli Qarori

2.5. "Bank tizimini yanada rivojlantirish va bo'sh pul mablag'larini bank aylanmasiga jalb etish chora-tadbirlari to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori 07.11.2007 y. N PQ-726

2.6. "Banklarning kapitallashuvini yanada oshirish va iqtisodiyotni modernizatsiyalashdagi investitsiya jarayonlarida ularning ishtirokini faollashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori 12.07.2007 y. N PQ-670

2.7. "Tijorat banklarining kapitallashish darajasini oshirishni rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni 19.12.2006 y. N PF-3831

2.5. «2007-2010 yillarda xususiylashtirish jarayonini yanada chuqurlashtirish va xorijiy investisiyalardan faol jalb qilish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori. Toshkent. 2007 y. 20 iyulъ.

2.6. "Banklarning kapitallashuvini yanada oshirish va iqtisodiyotni modernizasiyalashdagi investisiya jarayonlarida ularning ishtirokini faollashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori. Toshkent. 2007 y. 12 iyulъ.

2.7. "Qimmatli qog'ozlar bozori faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori. Toshkent. 2007 y. 27 sentyabrъ.

2.8. «Mikrofirmalar va kichik korxonalarni rivojlantirishni rag'batlantirish borasidagi chora-tadbirlari to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. Toshkent. 20.06.2008

2.9. «Bozor islohatlarini chuqurlashtirish va iqtisodiyotni yanada erkinlashtirish sohasidagi ustuvor yo`nalishlar amalga oshirilishini jadallashtirish chora-tadbirlari to`g`risida»gi O`zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. Toshkent. 14.06.2008.

2.10. «Tadbirkorlik sub'ektlarini xuquqiy ximoya qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to`g`risida»gi O`zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. Toshkent. 14.06.2008.

2.11. «Tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan taqdim etiladigan hisobot tizimini takomillashtirish va uni noqonuniy talab etganlik uchun javobgarlikni kuchaytirish to`g`risida»gi O`zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. Toshkent. 15.06.2008.

2.12. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 15 apreldagi «Bank tizimini yanada islox qilish va erkinlashtirish chora-tadbirlari to`g`risida» gi Qarori. «Xalq so`zi» 16.04.2008.

2.13. «To`g`ridan-to`g`ri xususiy xorijiy investisiyalarni jalb etishni rag`batlantirish borasidagi qo`shimcha chora tadbirlari to`g`risida»gi O`zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. «Xalq so`zi» 12.01.2008.

3.O`zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari

3.1. Karimov I.A. Bosh maqsadimiz – keng ko`lamli isloxotlar va modernizatsiya yo`lini qat`iyat bilan davom ettirish. “Xalq so`zi” 19.01.2013

3.2. Karimov I.A. 2012 yil Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosichga ko`taradigan yil bo`ladi. T.”O`zbekiston” 2012. -36b

3.3. Karimov I.A. Barcha reja va dasturlarimiz Vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi. T.: “O`zbekiston” 2011. 54b.

3.4. Karimov I.A. “Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O`zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo`llari va choralari”. T.: “O`zbekiston”. 2009. -48 b.

3.5. Муллажонов Ф.М. Ўзбекистон Республикаси банк тизими (иккинчи наشري)Тошкент - “Ўзбекистон” -2011.

4. Ilmiy monografiyalar va maqolalar.

4.1. Gozibekov D.G. Investisiyalarni moliyalashtirish masalalari. T., “Moliya” 2003, 332 b.

4.2. Karimov N.G`. Iqtisodiy integrasiyalashuv sharoitida investisiya faoliyatini moliyalashtirishning bozor mexanizmlarini joriy etish masalalari. Monografiya. T.: TMI. 2007 y.

4.3. Akramov E.A. Ekonomicheskie reformy Respubliki Uzbekistan.-M., TOO «Lyuks art», 2003 - 235 str.

4.4. Boltaev T. Razvitie rynka sindisirovannogo kreditovaniya. // Bozor, pul, kredit. № 10, 2008 g. s. 22-24.

4.5. Karimov N.G`. O'zbekiston Respublikasida investision loyixalarni moliyalashtirish amaliyotini takomillashtirish yo'lari. T.TMI. 2007 y. 138 bet.

5. 5. Asosiy adabiyotlar

5.1. Karimov N.G. Hojimatov R.H. Investisiylarn tashkil etish va moliyalashtirish 2011. TDIU/ O'quv qollanma/800, //

5.2. Qayumov R.I. Investisii. Uchebnoe posobie –2010 g. Toshkent . TDIU: 510 b.

5.3. Uzoqov A., Nosirov E, Saidov R., Sultonov M. Investisiya loyihalarini moliyalashtirish va ularning monitoringi. O'quv qo'llanma. T.: «Iqtisod – moliya», 2006 y. 380 bet.

5.4. Jo'raev A.S. , Xo'jamqulov D.YU., Mamatov B.S. Investisiya loyihalarni tahlili: Oliy o'quv muassasalari uchun o'quv qo'llanma. – T.: “SHarq”, 2003 y. 256 bet.

5.5. Kovalev V.V. Metody osenki investisionnykh proektov. – M.: «Finansy i statistika», 2002 – 144 str.

5.6. Podshevalenko G.P., Laxmatkina N.I., Makarova M.V. i dr. Investisii: uchebnoe posobie/ Finansovaya akademiya pri Pravitel'stve RF. – M., “KNORUS” – 2004 g. 208 str.

5.7. Morozov D.S. Proektnoe finansirovanie: upravlenie riskami i straxovanie. M.: 1999 g.

5.8. Kovalev V.V. i dr. Investisii. Uchebnik. – M.: TK Velbi, izd-vo Prospekt, 2005. – 440 str.

5.9. Zvi Bodi Robert, K. Merton «Finansy» - M.: Vil'yams, 2008. – 780s.

5.10. Lavrushin O.I., Afanas'eva O.N., Kornienko S.L. Bankovskoe delo: sovremennaya sistema kreditovaniya. Uchebnoe posobie. – M.: KNORUS, 2009. – 15-26 s.

5.11. Buzdalin A.A. Faktory optimal'noy likvidnosti. //Bankovskoe delo. M. 2008 g. №1 str. 2-7.

5.12. Krupnov YU.S. O prirode emissionnykh resursov Sentral'nykh bankov. // Bankovskoe delo № 8, 2008 g. s. 38-43.

5.13. Toymuxamedov I.R. Bank ishi. O'quv qo'llanmasi. TDIU.2008.,239 b.

6. Qo'shimcha adabiyotlar

6.1 O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimovning 2011 yilning asosiy yakunlari va 2012 yilda O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining majlisidagi “2012 yil Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'taradigan yil bo'ladi” mavzusidagi ma'ruzasini o'rganish bo'yicha o'quv qo'llanma. – T.: Iqtisodiyot. 2012. – 282 b

6.2 B.Yu.Xodiev, A.Sh.Bekmurodov, U.V.G'ofurov. “O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning “Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish-ustuvor maqsadimizdir” ma'ruzalarini o'rganish bo'yicha o'quv uslubiy majmua. T. Iqtisodiyot.2010. – 214 b

7. Davriy nashrlar, statistik to'plamlar va hisobotlar

7.1 Bozor, pul va kredit// №1-12 2012. №1-4, 2013 yil.

7.2 Bank axborotnomasi, gazetasi 2012 yil №1-52, 2013 yil № 1-12.

7.3 O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining yillik

hisobotlari

7.4 O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki yillik hisobotlari

7.5 OATB "O'zsanoatqurilishbank" yillik hisobotlari

8. Internet saytlari

8.1 www.thebanker.com

8.2 www.forex.com

8.3 www.bankinfo.uz

8.4 www.uzland.uz

8.5 www.Google.uz


8.6 www.cer.uz

1-Илова

Инвестиция жараёнларни макроиқтисодий таркибига кирган объектлар³⁰ Муаллиф томонидан тайёрлаган

2 Илова


Инвестицион муҳитни таркиби



³¹ Муаллиф томонидан тайёрлаган

³² Муаллиф томонидан тайёрлаган

Тижорат банкларида инвестицион фаолиятни кредитлаш механизми ва унинг таркибий қисмларининг боғлиқлиги



Илова

ОАТБ “Усаноатқурилишбанк”нинг 2008 -2012 йиллар кредит қўйилмаси таркиби ва динамикаси

№	Қўрсаткичлар	2008		2009		2010		2011		2012		2008 йилга Нисбатан ўсиш	
		Млрд. сўмда	фондла	Млрд. сўмда	фондла	Млрд. сўмда	фондла	Млрд. сўмда	фондла	Млрд. сўмда	фондла	Млрд. сўмда	фондла
1	Узоқмуддатли кредитлар	309.7	77.1	452.5	76.6	723.8	76.2	954.0	76.0	1102.6	77.5	792.9	2.6
2	Қисқа муддатли кредитлар	78.1	19.4	116.7	19.7	194.5	20.5	271.8	21.6	276.0	19.4	197.9	2.5
3	Факторинг хизматлари	1.8	0.4	9.5	1.6	6.4	0.7	3.2	0.3	18.5	1.3	16.7	9.3
4	Лизинг хизматлари	12.3	3.1	12.2	2.1	24.8	2.6	26.3	2.1	25.6	1.8	13.3	1.1
	Жами	401.9	100	590.9	100	949.5	100	1255.3	100	1422.7	100	1020.8	

³³ Муаллиф томонидан тайёрлаган